

FIZIKADAN TEST VARIANTLARI

2012-YIL(baza)
(tuzatilgan, javoblari bilan)

2012 yil fizika testining to'g'ri javob kodlari
 (Javoblarning o'rni almashtirilgan.)

№	Nomerning oxirgi raqami										№	Nomerning oxirgi raqami									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0	C	C	C	D	D	B	B	C	C	30	D	A	A	B	C	D	B	A	B	B	
1	D	D	B	A	B	A	C	D	A	31	B	D	D	D	C	B	C	C	D	D	
2	B	C	A	B	B	A	D	A	A	32	A	D	D	C	B	B	C	B	B	B	
3	B	C	C	A	A	C	C	D	C	33	B	A	D	C	A	A	A	B	A	A	
4	C	D	A	B	A	C	C	B	A	34	B	A	A	B	B	A	A	A	A	D	
5	B	A	B	D	C	C	D	B	C	35	C	C	B	B	C	B	C	D	A	A	
6	C	D	D	C	D	B	B	B	C	36	D	B	A	A	A	D	C	B	A	A	
7	C	C	C	C	C	C	C	B	C	37	A	C	A	B	A	D	A	A	B	A	
8	C	B	D	A	D	A	A	A	B	38	A	D	B	C	B	D	C	A	C	D	
9	C	B	A	A	B	C	A	D	C	39	A	D	D	D	D	B	A	A	C	B	
10	B	B	C	B	A	C	D	D	C	40	C	D	A	C	B	C	C	C	D	C	
11	B	C	C	A	C	C	C	B	B	41	C	D	D	B	A	B	C	C	C	D	
12	D	C	A	D	D	B	B	C	D	42	C	C	B	D	A	B	D	A	B	B	
13	B	C	B	C	B	A	D	B	A	43	B	B	C	C	A	B	C	A	A	A	
14	D	B	B	D	C	A	B	A	B	44	D	B	A	B	B	D	C	B	B	D	
15	B	B	A	A	C	D	D	C	D	45	B	A	A	A	C	B	D	C	C	B	
16	D	C	D	A	C	C	C	D	C	46	D	C	A	B	C	B	C	A	C	B	
17	C	B	B	B	A	A	C	D	B	47	D	B	C	C	C	D	C	D	A	B	
18	A	B	B	A	D	C	B	B	A	48	C	C	B	C	C	C	B	C	C	A	
19	D	A	B	A	B	D	D	D	D	49	B	A	D	A	A	C	B	D	B	B	
20	D	B	B	B	C	D	B	B	C	50	B	A	D	B	C	A	B	D	B	C	
21	C	B	B	D	C	C	C	A	D	51	B	B	B	C	B	C	B	C	C	D	
22	B	B	A	B	C	C	A	C	B	52	B	B	D	A	A	B	B	D	A	B	
23	D	A	C	B	C	A	D	D	C	53	B	A	D	C	A	B	C	C	B	A	
24	A	B	C	B	C	D	A	D	C	54	A	C	B	B	A	A	C	C	C	D	
25	C	D	A	D	D	C	B	C	C	55	D	A	B	C	A	C	A	C	D	D	
26	B	D	A	D	B	C	D	D	A	56	D	C	C	A	D	C	A	C	C	D	
27	A	D	D	C	A	B	A	D	A	57	A	B	B	B	D	D	B	A	B	B	
28	A	C	B	D	B	A	D	B	C	58	A	B	B	B	C	D					
29	B	C	C	C	A	C	D	B	B												
№	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	№	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
	Nomerning oxirgi raqami											Nomerning oxirgi raqami									

1. Qirrasi 10,8 kg massali kubning qirrasidan uch marta kichik bo'lgan va o'sha moddadan yasalgan kubning massasi qanday bo'ladi (g)?
 A) 300. B) 360. C) 400. D) 720.
2. Hajmi $V_1=30 \text{ cm}^3$, zichligi $p_1=3 \text{ g/cm}^3$ bo'lgan suyuqlik bilan hajmi V_2 va zichligi $p_2=4,5 \text{ g/cm}^3$ bo'lgan boshqa bir suyuqlik aralashdirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning zichligi $p=3,6 \text{ g/cm}^3$ bo'lsa, V_2 qanday (cm^3)? Aralashmaning hajmi V_1+V_2 ga teng.
 A) 12. B) 15. C) 20. D) 25.
3. Keltirilgan birliklarning qaysi biri paskal birligiga teng?
 A) N/m . B) N . C) N/m^2 . D) $kg \cdot N/s^2$.
- 4*. Kastrul devorlariga unga quyilgan suyuqlik qanday kuch bilan bosadi? (S – kastrulning suyuqlik egallagan qismining yon sirti yuzi, p – suyuqlik zichligi, p_{at} – atmosfera bosimi, g – erkin tushish tezlanishi, h – suyuqlik qatlarning balandligi.)
 A) $(pgh+p_{at})S$.
 B) $p_{at}S$. C) $pgh/2$. D) $(pgh/2+p_{at})S$.
5. Uchta bir xil chelak suv bilan limma-lim to'ldirilgan. Bir chelakda suvdan boshqa hech narsa yo'q, ikkinchisida 100 g massali po'kak suzmoqda, uchinchisida esa 1 kg massali yog'och bo'lagi suzmoqda. Qaysi chelak eng og'ir?
 A) birinchi. B) ikkinchi. C) uchinchi.
 D) barchasining massasi bir xil.
6. Ko'Ining chuqurligi qanday bo'lganda (m) suvning ko'l tubiga beradigan bosimi 400 kPa bo'ladi?
 A) 20. B) 40. C) 200. D) 400.
7. Idishdagi suvda ichida po'kak bo'lgan muz parchasi suzmoqda. Muz erib ketgach idishdagi suv sathi qanday o'zgaradi? Suv haroratining o'zgarishini hisobga olmang.
 A) ko'tariladi.
 B) o'zgarmaydi.
 C) pasayadi.
 D) javob muz va po'kak hajmlari nisbatiga bog'liq.
8. Zichligi suvnikidan 3 marta katta, massasi 27 kg bo'lgan jismni suvda harakatsiz ushlab turish uchun qanday kuch kerak bo'ladi (N)?
 A) 90. B) 135. C) 180. D) 270.
9. Hajmi 4 cm^3 bo'lgan kovak qo'rg'oshin shar suv ichida suzishi uchun uning massasi qanday bo'lishi kerak (g)?
 A) 2. B) 3. C) 4. D) 5.
10. Hajmi 2 m^3 bo'lgan po'lat relsni suvda tutib turish uchun qanday kuch kerak bo'ladi (kN)?
 $p_p=7800 \text{ kg/m}^3$.
 A) 7,8. B) 13,6. C) 56,7. D) 136.
11. Suvda 11 cm qalinlikdagi muz parchasi suzib yuribdi. Muzning suv ostidagi qismi massasining suv ustidagi qismi massasiga nisbatini toping. $p_{muz}=900 \text{ kg/m}^3$.
 A) 1. B) 1,1. C) 0,9. D) 9.
12. Zichligi $0,42 \text{ g/cm}^3$ bo'lgan jism qandaydir suyuqlikda hajmining $3/5$ qismi botgan holda suzib yuribdi. Shu suyuqlikning zichligi qanday (kg/m^3)?
 A) 500. B) 700. C) 800. D) 1500.
13. Zichligi suvnikidan 2 marta katta bo'lgan jism Yerda suvli idishga solinganda, cho'kib ketdi. Oyda bu jism ... A) idish tubida yotadi.
 B) suvga qisman botgan holda suzadi.
- C) suvdan butunlay itarib chiqariladi.
 D) suvga to'la botgan holda suzadi.
14. Kub shaklidagi ichi kovak jism zichligi 3000 kg/m^3 bo'lgan materialdan yasalgan bo'lib, suvga to'la botgan holda suzmoqda. Agar kovak ham kub shaklida bo'lsa, kovak tomonining jism tomoniga nisbatli qanday bo'ladi?
 A) $\sqrt[2]{3}$. B) $\sqrt[3]{2/3}$. C) $\sqrt[3]{2}$. D) $\sqrt[3]{7/3}$.
15. 75 kg massali kishi FIK 0,6 bo'lgan ko'char blok yordamida eng ko'pi bilan qanday yukni (kg) ko'tara oladi? A) 90. B) 96. C) 98. D) 100.
16. 4,2 kg ko'mir yoqilganda FIK 40% bo'lgan qozondagi 145 kg suv qanchaga isiydi (K)?
 $c=4200 \text{ J/(kg}\cdot\text{K)}$, $q=29 \cdot 10^6 \text{ J/kg}$.
 A) 60. B) 70. C) 80. D) 90.
17. Massasi 1 kg bo'lgan 10°C haroratli suvni 0°C gacha sovitish uchun unga 0°C haroratli muzdan kamida qanicha (g) solish kerak? Muzning solishtirma erish issiqligi 330 kJ/kg, suvning solishtirma issiqlik sig'imi 4200 J/(kg·K).
 A) 1,27. B) 12,7. C) 11. D) 127.
18. Doiraviy metall plastinka uchi plastinka markazida yotgan teng tomonli uchburchak chizilgan. Plastinka isitilganda bu uchburchakning shakli qanday o'zgaradi?
 A) o'zgarmaydi (teng tomonliligidcha qoladi).
 B) tomonlari egri chiziqli bo'lib qoladi.
 C) yon tomonlari asosidan kichik bo'lgan teng yonli uchburchakka aylanadi.
 D) yon tomonlari asosidan katta bo'lgan teng yonli uchburchakka aylanadi.
19. Quyidagi optik asboblarning qaysi biri buyumning kattalashgan haqiqiy tasvirini hosil qilishi mumkin? A) yassi ko'zgu. B) sochuvchi linza.
 C) shisha plastina. D) yig'uvchi linza.
20. Buyum fokus masofasi F bo'lgan linzadan cheksiz uzoqlikda joylashgan bo'lsa, uning tasviri linzadan qanday masofada hosil bo'ladi?
 A) $F/2$. B) F . C) $1,5F$. D) $2F$.
21. Fokus masofasi 5 cm bo'lgan linza yordamida undan 15 cm masofada va uning optik o'qidan bir oz balandroqda yotgan nuqtaning tasviri hosil qilindi. Linza pastga 2 cm surilsa, nuqtaning tasviri qanchaga (cm) suriladi?
 A) 2. B) 2,4. C) 3. D) 3,2.
22. Linzaning kattalashtirishi 2 ga teng bo'lishi uchun buyumni fokus masofasi F bo'lgan linzadan qanday masofaga qo'yish kerak?
 A) $1,5F$. B) $2F$. C) $3F$. D) $4F$.
23. Buyumning tasviri buyumning o'zidan 2 marta kichik bo'lishi uchun uni fokus masofasi F bo'lgan sochuvechi linzadan qanday d masofaga qo'yish kerak?
 A) $F < d < 2F$.
 B) $d=F$. C) $d=2F$. D) $d>F$.
24. Qabariq linzaning o'rta qismina diametri linza diametridan 2 marta kichik bo'lgan tanga yopishdirildi. Bu hol linza hosil qilayotgan tasvirga qanday ta'sir ko'rsatadi? A) tasvir yo'qoladi.
 B) butun tasvirning ravshanligi kamayadi.
 C) tasvir o'rta qismining ravshanligi kamayadi.
 D) tasvir o'rta qismining ravshanligi kamayadi.

25. Yig'uvchi linza yordamida ekranda chiroqning tasviri hosil qilindi. Agar linzaning o'ng yarmi to'silsa, tasvir qanday o'zgaradi? A) vaziyati o'zgarmaydi, ravshanligi kamayadi. B) chapga suriladi. C) o'ng qismi yo'qoladi. D) chap qismi yo'qoladi.
26. Yorug'lik tarqatayotgan nuqtaning mavhum tasviri linzadan 60 cm masofada hosil bo'ldi. Agar bu nuqta linzadan 30 cm masofada joylashgan bo'lsa, linzaning fokus masofasi qanday (cm)? A) -50. B) 35. C) 40. D) 60.
27. Optik kuchi 12 D bo'lgan yig'uvchi linzadan 50 cm masofada joylashgan buyumning tasviri linzadan qanday masofada hosil bo'ladi (cm)? A) 10. B) 12. C) 25. D) 60.
28. Linzaning optik kuchi birligi – dioptriyani boshqa birliklar orqali qanday ifodalash mumkin? A) m^{-1} . B) N^{-1} . C) N. D) m.
29. Optik kuchlari +8 D va -3 D bo'lgan yupqa linzalar optik o'qlari umumiy bo'ladigan qilib, bir-biriga tig'iz joylashtirilgan. Buyum linzalardan 25 cm masofaga qo'yilgan bo'lsa, tasvirning chiziqli kattalashishi qanday bo'ladi? A) 0,5. B) 2. C) 4. D) 5.
30. Buyumning to'g'ri tasviri hosil bo'lishi uchun u optik kuchi 2 D bo'lgan yig'uvchi linzadan ko'pi bilan necha metr masofada bo'lishi kerak? A) 0,4. B) 0,5. C) 0,8. D) 2.
31. Buyumidan linzagacha bo'lgan masofa d ga, kattalashtirish k ga teng, tasvir mavhum. Linzaning fokus masofasini toping.
A) $\frac{k-1}{k}d$. B) $\frac{k}{k+1}d$. C) $\frac{kd}{k-1}$. D) $\frac{k+1}{k}d$.
32. 8 m uzunlikdagi binoning ob'ektivining fokus masofasi 5 cm bo'lgan fotoapparat yordamida olingan tasviri uzunligi 2 cm bo'lsa, bino necha metr masofadan suratga olingan?
A) 4. B) 10. C) 20. D) 32.
33. Ko'zoynakli bola ko'zoynagini olib, kitobni 16 cm masofadan o'qiydi. Ko'zoynakning optik kuchini aniqlang (D).
A) -2,25. B) -3,5. C) -4,25. D) +2,25.
34. To'g'ri tasdiqni ko'rsating.
A) ilgarilanma harakat qilayotgan jismning barcha nuqtalari bir xil ko'chadi.
B) aylanish o'qi atrofidagi aylanma harakatida jismning barcha nuqtalari bir xil ko'chadi.
C) ilgarilanma harakatda bo'lgan jism doimo tekis harakat qiladi.
D) ilgarilanma harakat qilayotgan jismning har xil nuqtalarining ko'chishi har xil bo'ladi.
- 35*. Jismning mexanik harakatini o'rganishda nima uchun koordinatalar sistemasidan foydalaniladi? A) jismning harakatda yoki harakatsiz ekanligini aniqlash uchun.
B) jismning boshlang'ich koordinatalarini aniqlash uchun. C) jismning fazodagi vaziyatining vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini aniqlash uchun. D) jismning boshqa jismlarga nisbatan tinchlikda yoki haraka'tda ekanligini aniqlash uchun.
36. Qayiq kengligi 240 m bo'lgan daryoni kesib o'tmoqda. Agar oqim tezligi 2 m/s, qayiqning suvgi nisbatan tezligi 3 m/s bo'lsa, qayiq ikkinchi sohilga qanday minimal vaqtida (s) yetib bora oladi? A) 40. B) 48. C) 80. D) 120.
37. Ikki parallel temir yo'ldan uzunligi 80 m, tezligi 15 m/s bo'lgan yuk poezdi va uzunligi 0,14 km, tezligi 25 m/s bo'lgan passajir poezdi bir tomonga harakatlanmoqda. Passajir poezdi yuk poezdini qancha vaqtida (s) quvib o'tadi?
A) 10. B) 12,5. C) 15. D) 22.
38. Galileyning nisbiylik prinsipini ifodalaydigan fikrlarni aniqlang:
1) inersial sanoq sistemaning tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatda ekanligini sistemaning ichida o'tkaziladigan hech qanday mexanik tajribalar yordamida aniqlab bo'lmaydi.
2) barcha inersial sanoq sistemalarda harakat qonunlari bir xil bo'ladi.
3) noinersial sanoq sistema ichida turib uning tinch yoki harakatda ekanligini aniqlab bo'lmaydi.
4) barcha noinersial sanoq sistemalarda harakat qonunlari bir xil bo'ladi.
A) 1. B) 2. C) 1 va 2. D) 3 va 4.
39. Jism bir inersial sanoq sistemada 10 m/s, ikkinchi sanoq sistemada 5 m/s tezlik bilan to'g'ri chiziqli tekis harakat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi sistema ham inersialmi?
A) ha, chunki jism tekis harakat qilayotgan ixtiyoriy sanoq sistema inersial hisoblanadi.
B) ha, chunki jism ikkala sistemada ham tezlanishiga ega emas.
C) yo'q, chunki jismning ikkinchi sanoq sistemadagi tezligi boshqacha.
D) yo'q, chunki jism faqat bitta inersial sanoq sistemada tekis harakat qilishi mumkin.
40. Yomg'ir tomchilari 6,6 m/s tezlik bilan tik tushmoqda. Truba qiya o'rnatilgan arava horizontal sirt bo'ylab chapga 2,2 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Tomchilar truba ichida uning o'qiga parallel harakatlanishi uchun truba qaysi taralga og'gan bo'lishi va vertikal bilan qanday burchak tashkil etishi kerak?
A) o'ngga, arctg(1/3). B) o'ngga, arctg3.
C) chapga, arctg(1/3). D) chapga, arctg3.
41. Velosipeddehi va yo'lovechi bir nuqtadan bir-biriga tik ravishda 60 s harakat qilganda, ular orasidagi masofa 0,15 km bo'ldi. Agar velosipedning tezligi yo'lovchinishidan 3 marta katta bo'lsa, yo'lovchining tezligi qanday (m/s)?
A) $\frac{\sqrt{10}}{3}$. B) $\frac{\sqrt{10}}{2}$. C) $\frac{3\sqrt{10}}{2}$. D) $\frac{\sqrt{10}}{4}$.
42. Daryoda bir-biridan 50 km masofada joylashgan ikki punkt orqasida kater qatnaydi. Kater oqim bo'ylab suzganda bu masofani 2 soatda, oqimiga qarshi suzganda 5 soatda o'tadi. Daryo oqimining tezligini toping (km/h).
A) 7,5. B) 15. C) 17,5. D) 35.
43. Avtomobil yo'lning 2/3 qismida 54 km/h, qolgan qismida 36 km/h tezlik bilan harakatlangan bo'lsa, uning butun yo'ldagi o'rtacha tezligi qanday bo'lgan (m/s)?
A) 12. B) 12,85. C) 14,8. D) 16,5.

44. Avtomobil manzilgacha bo'lgan 80 km masofa ning yarmini 60 km/h tezlik bilan, qolgan yarmini 75 km/h tezlik bilan o'tdi. Uning boshlang'ich 1 soatdagi o'ttacha tezligini toping (km/h).
A) 65. B) 66,7. C) 67,5. D) 70.
- 45*. Jismning harakat tezligi $v=3t-1$ (m/s) qonun bo'yicha o'zgaradi. Uning $t_1=1$ s paytdan $t_2=3$ s paytgacha oraliqdagi o'ttacha tezligini toping (m/s).
A) 2. B) 4. C) 5. D) 10.
46. Jismning harakat tenglamasi $x=-3-4t+2t^2$ (m) ko'rinishga ega. $t=3$ s paytda uning tezligi qanday bo'ladi (m/s)?
A) 2. B) 5. C) 8. D) 12.
47. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism 2 minutda 480 m yo'l o'tib, tezligini 3 marta oshirdi. Jismning shu yo'l oxiridagi tezligini toping (m/s).
A) 4. B) 6. C) 12. D) 240.
48. Jism qiyaligi 0,8 bo'lgan qiya tekislik uchidan harakat boshlab, pastga tomon ishqalanishsiz siljimoqda. U 2 s da gorizontal yo'nalishda qanchaga (m) ko'chadi?
A) 9,6. B) 12. C) 14,6. D) 16.
49. Qiya tekislikning uzunligi 50 m, balandligi 40 m. Jism qiya tekislik uchidan harakat boshlab, pastga tomon ishqalanishsiz siljimoqda. U 3 s da gorizontal yo'nalishda qanchaga (m) ko'chadi?
A) 14,6. B) 21,6. C) 28. D) 36.
50. Qiya tekislikning uzunligi 20 m, balandligi 12 m. Jism qiya tekislik uchidan harakat boshlab, pastga tomon ishqalanishsiz siljimoqda. U 2 s da gorizontal yo'nalishda qanchaga (m) ko'chadi?
A) 8. B) 9,6. C) 12. D) 12,4.
- 51*. O'q qalinligi 5 cm bo'lgan taxtaga 400 m/s tezlik bilan kirib, 200 m/s tezlik bilan teshib chiqqan bo'lsa, uning taxta ichidagi tezlanishi qanday (Mm/s^2) bo'lgan?
A) 1,2. B) 1,6. C) 2,8. D) 3,4.
52. Massasi 10 g bo'lgan o'q qalinligi 5 cm bo'lgan taxtaga 400 m/s tezlik bilan kirib, 200 m/s tezlik bilan teshib chiqdi. Taxtaning o'qqa ko'r-satgan qarshilik kuchini baholang (kN).
A) 8. B) 12. C) 14. D) 16.
53. Mototsiklchi v_0 boshlang'ich tezlik va 2 m/s tezlanish bilan harakatlanib, 100 m yo'lida tezligini 25 m/s ga etkazdi. v_0 ni aniqlang (km/h).
A) 15. B) 20. C) 40. D) 54.
54. Mototsikl 3,6 km/h boshlang'ich tezlik bilan tekis tezlanuvchan harakat qilib, biror masofani o'tdi va 25,2 km/h tezlikka erishdi. Shu masofaning yarmida uning tezligi qanday bo'lgan (m/s)?
A) 3,5. B) 4. C) 5. D) 6.
55. Jism boshlang'ich teziksiz tekis tezlanuvchan harakatlanib, 1 s da 3 cm yo'l o'tdi. U uchinchi sekundda qanday (cm) yo'l o'tadi?
A) 5. B) 10. C) 15. D) 20.
- 56*. Tinch holatdan boshlab tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism to'rtinehi sekundda 28 m yo'l o'tsa, boshlang'ich 10 s da qanday yo'l o'tadi (m)?
A) 140. B) 200. C) 240. D) 400.
57. Jism dastlab 6 s davomida 3 m/s tezlik bilan tekis, so'ngra 1,5 m/s² tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlandi. Harakatning dastlabki 10 s idagi o'ttacha tezlikni (m/s) toping.
A) 3,8. B) 4,2. C) 4,6. D) 6,3.
58. Jism dastlab 4 s davomida 2 m/s tezlik bilan tekis, so'ngra 5 s davomida 2 m/s² tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlandi. Jismning o'tgan yo'llini toping (m).
A) 18. B) 40. C) 43. D) 48.
59. 1-jism harakat boshlab, oxirida 10 m/s tezlikka erishdi. 2-jism yo'lning 1/3 qismini 2 m/s tezlikda, qolgan qismini 4 m/s tezlikda o'tdi. 1-jism 2-jismga nisbatan 3 marta ko'p vaqt harakatlangan. Ularning o'tgan yo'llari orasida gi munosabatni toping.
A) $s_1=3s_2$. B) $s_1=5s_2$. C) $s_2=3s_1$. D) $s_2=5s_1$.
- 60*. Jismning harakat tenglamasi $y=0$, $z=0$, $x=17+3t+0,3t^2$ ko'rinishga ega. Traektoriyaning shakli, harakatning turi, jismning $t=0$ paytdagi koordinatasi x_0 va tezligi v_0 , tezlanishi a topilsin.
**A) radiusi 17 m bo'lgan aylana bo'ylab tekis harakat, $x_0=17$ m, $v_0=v=3$ m/s, markazga intilma tezlanish $a_n=0,6$ m/s².
B) to'g'ri chiziqli, tekis sekinlanuvchan, $x_0=17$ m, $v_0=3$ m/s, $a=-0,6$ m/s².
C) to'g'ri chiziqli, tekis tezlanuvchan, $x_0=17$ m, $v_0=3$ m/s, $a=0,6$ m/s².
D) to'g'ri chiziqli, tekis o'zgaruvchan, $x_0=6$ m, $v_0=0$, $a=0,6$ m/s².**
- 61*. Jism aylana bo'ylab 90 km/h tezlik bilan tekis aylanmoqda. Jism tezligining yarim davrda o'zgarishi modulini toping (m/s).
A) 0. B) 5. C) $25\sqrt{2}$. D) 50.
62. Aylana traektoriya bo'ylab 3 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan jism 24 s davomida 6 marta aylanadi. 3 s davomida uning chiziqli tezlik vektori necha gradusga buriladi?
A) 45. B) 90. C) 180. D) 270.
63. Aylana traektoriya bo'ylab 2 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan jismning burchak tezligi 0,5 rad/s bo'lsa, 3,14 s davomida uning chiziqli tezlik vektori necha gradusga buriladi?
A) 45. B) 60. C) 90. D) 180.
64. Jism radiusi 1 m bo'lgan aylana bo'ylab 2 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Aylanish davrining yarmida jism o'tgan yo'lni va ko'chish modulini toping (m).
A) 6,28; 0. B) 3,14; 0. C) 6,28; 2. D) 3,14; 2.
65. α gradus janubiy kenglikdagi Yer sirti nuqtalarining Yerning sutkalik aylanishi hisobiga ega bo'ladigan chiziqli tezligini aniqlang. Yer radiusi R , aylanish davri T .
A) $R/T\cos\alpha$. B) $2\pi R/T\cos\alpha$. C) $R/T\sin\alpha$. D) $2\pi R/T\sin\alpha$.
66. $8 \cdot 10^6$ m radiusli sferik sayyorada sutkaning davomiyligi 25 soatga teng. Uning 60° kengligida joylashgan nuqtalar sayyoraning sutkalik aylanishi hisobiga qanday (m/s) tezlikka ega bo'ladilar? **A) 209. B) 279. C) 349. D) 436.**
67. Aylana traektoriya bo'ylab 1 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan jism 48 s davomida 6 marta aylanadi. Uning markazga intilma tezlanish vektori 2 s davomida necha gradusga buriladi?
A) 45. B) 90. C) 180. D) 0.

68. Uchta nuqta radiuslari mos ravishda $R_1 > R_2 > R_3$ bo'lgan aylanalar bo'ylab bir xil tezlik bilan aylanmoqda. Ularning markazga intilma tezlanishlarini taqqoslang. A) $taqqoslab bo'lmaydi$.
B) $a_1 > a_2 > a_3$. C) $a_1 < a_2 < a_3$. D) $a_1 = a_2 = a_3$.
69. Ikki nuqta radiuslari mos ravishda $R_1 < R_2$ ($R_2 = 3R_1$) bo'lgan aylanalar bo'ylab v_1 va v_2 ($v_2 = 3v_1$) tezliklar bilan tekis aylanmoqda. Ularning markazga intilma tezlanishlarini taqqoslang. A) $a_2 = 3a_1$. B) $a_2 = 4a_1$. C) $a_2 = 9a_1$. D) $a_1 = 3a_2$.
70. Birinchisining radiusi 3 cm, ikkinchisiniki 9 cm bo'lgan shkivlar tasma yordamida o'zaro ulangan. Birinchi shkivning aylanish davri 2 marta kamaytirilsa, ikkinchi shkiv gardishidagi nuqtalarning markazga intilma tezlanishi qanday o'zgaradi?
A) 2 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
C) 4 marta ortadi. D) 4 marta kamayadi.
71. Jismning aylana bo'ylab harakatida aylana radiusi 2 marta ortib, tezlik 1,5 marta kamaysa, jismning aylanish davri qanday o'zgaradi?
A) 1,5 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
C) 3 marta ortadi. D) 3 marta kamayadi.
72. 8 m radiusli aylana bo'ylab tekis aylanayotgan jismning markazga intilma tezlanishi 5 m/s^2 bo'lsa, uning aylanish davri qanday (s)? ($\pi^2 = 10$)
A) 1,6. B) 6. C) 8. D) 10.
73. Radiusi 6 m bo'lgan aylana bo'ylab tekis aylanayotgan jism 2 minutda 20 marta aylandi. Uning aylanish davrini toping (s).
A) 4. B) 5. C) 6. D) 10.
74. Aylanma harakat 1-shkivdan 2-siga tasma orqali uzatilmoqda. 1-shkivning radiusi 4 cm, 2-siniki 5 cm. 1-shkivning aylanish davri 0,2 s. 2-shkivning aylanish chastotasini toping (s^{-1}).
A) 0,25. B) 3. C) 4. D) 5.
75. Aylanayotgan diskda ikki nuqta olindi. Ulardan disk markazigacha bo'lgan masofalar farqi 2 cm, ularning tezliklari farqi $0,2\pi \text{ m/s}$. Diskning aylanish chastotasini toping (ayl/s).
A) 0,5. B) 1. C) 5. D) 6,28.
76. Avtomobil 18 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Uning diametri 80 cm bo'lgan g'ildiragining burchak tezligini toping (rad/s).
A) 0,25. B) 0,9. C) 12,5. D) 45.
77. Massasi 6 kg bo'lgan jism tinch holatdan boshlab, 4 m/s tezlikka erishgan bo'lsa, unga 3 N kuch qancha vaqt ta'sir etgan (s)?
A) 6. B) 8. C) 9. D) 12.
78. To'g'ri tasdiqlarni toping. Bir inersial sanoq sistemaga nisbatan: 1) to'g'ri chiziqli tekis harakatda bo'lgan sanoq sistema; 2) aylana tracktoriya bo'ylab tekis harakatda bo'lgan sanoq sistema; 3) tinch tur'gan sanoq sistema; 4) tekis tezlanuvchan harakatda bo'lgan sanoq sistema ham inersial sanoq sistema bo'ladi.
A) 3. B) 1, 2. C) 1, 3. D) 3, 4.
79. 84 N kuch jismga $0,7 \text{ m/s}^2$ tezlanish beradi. Qanday kuch (N) jismga $1,2 \text{ m/s}^2$ tezlanish beradi? A) 128. B) 136. C) 144. D) 152.
80. To'g'ri chiziqli tekis harakatlanayotgan jismga ta'sir etayotgan natijaviy kuchning yo'nalishini aniqlang.
A) $aniqlab bo'lmaydi$.
B) $harakat yo'nalishiga qarshi$.
C) $F=0$. D) $harakat yo'nalishida$.
81. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda bo'lgan jismga ta'sir etayotgan natijaviy kuchning yo'nalishini aniqlang.
A) $harakat yo'nalishiga qarshi$.
B) $harakat yo'nalishida$. C) $F=0$.
D) $aniqlab bo'lmaydi$.
82. Massasi 0,5 kg bo'lgan jismga 0,9 va $1,2 \text{ N}$ o'zaro tik kuchlar ta'sir qissa, jism qanday tezlanish (m/s^2) oladi? A) 1,5. B) 2. C) 2,5. D) 3.
83. 2 kg massali jismga gorizontal yo'nalishda modullari 2 N dan bo'lgan 5 ta kuch ta'sir etmoqda. Qo'shni kuchlar orasidagi burchaklar 72° dan bo'lsa, jism qanday tezlanish (m/s^2) oladi?
A) 0. B) 1. C) 2,5. D) 5.
84. Jism to'g'ri chiziqli tekis tezlik bilan harakatlanmoqda. Jismga uning boshlang'ich tezligiga tik yo'nalgan 10 N kuch ta'sir eta boshladi. Uning shundan keyingi harakati qanday bo'lishini aniqlang.
A) $to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan$.
B) $to'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan$.
C) $parabola bo'ylab tekis tezlanuvchan$.
D) $parabola bo'ylab noteekis tezlanuvchan$.
85. Traktor yuksiz pritsepgi 4 m/s^2 , yukligiga esa 1 m/s^2 tezlanish beradi. Bir-biriga ulangan bu pritseplarga traktor qanday tezlanish beradi (m/s^2)?
A) 0,8. B) 1,25. C) 2,5. D) 3.
86. Gorizontal yo'lda 90 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobil, motori o'chirilgach, 125 s dan so'ng to'xtadi. Agar uning massasi 2 t bo'lsa, unga qanday o'rtacha qarshilik kuchi (N) ta'sir qilgan?
A) 400. B) 500. C) 600. D) 700.
87. O'zgarmas kuch ta'sirida harakat boshlagan jism birinchi sekundda 25 em yo'l o'tdi. Agar jismning massasi 20 kg bo'lsa, bu kuch qanday (N)?
A) 10. B) 12,5. C) 25. D) 50.
88. Jismga x o'qi yo'nalishida 20 N kuch qo'yilgan. Agar jismning harakat tenglamasi $x = 12 + 4t + 4t^2$ ko'rinishda bo'lsa, uning massasi qanday (kg)?
A) 1. B) 2,5. C) 4. D) 5.
89. 2 kg massali jismning harakat tenglamasi $x = 3 - 10t - t^2$ ko'rinishda bo'lsa, unga ta'sir etuvchi kuch va harakat turi qanday?
A) 2 N, tekis tezlanuvchan.
B) 2 N, tekis sekinlanuvchan.
C) 4 N, tekis tezlanuvchan.
D) 4 N, tekis sekinlanuvchan.
90. O'zgarmas bir xil kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli harakat qilayotgan jismlarning harakat tenglamalari $x_1 = 3 + 2t^2$ va $x_2 = 2 + 6t^2$ bo'lsa, ularning massalari necha marta farq qiladi?
A) 2. B) 2,5. C) 3. D) 4.
91. Uzunligi L bo'lgan prujinaning bikrligi k bo'lsa, bikrligi $2k$ bo'lishi uchun uning uzunligi qanday bo'lishi kerak?
A) $L/3$. B) $L/2$. C) $2L$. D) $3L$.
92. Uzunligi 10 cm bo'lgan prujinaga 400 g yuk osilganda u 1 cm ga uzyaydi. Agar shu prujinaga 0,6 kg yuk osilsa, uning uzyayishi qanday (cm) bo'ladi?
A) 1,5. B) 2. C) 2,5. D) 3.

93. Prujina qandaydir kuch ta'sirida 3 cm cho'zildi. Prujinaning 2/3 qismini kesib tashlab, qolgan qismiga yana shu kuch ta'sir etsa, u qanchaga (cm) cho'ziladi? A) 1. B) 1,5. C) 2. D) 3.
94. Prujinaga yuk osilganda uning uzunligi 2 cm ortdi. Agar prujinaning 2/3 qismini kesib tashlab, qolgan qismiga yana shu yuk osilsa, uning nisbiy deformatsiyasi qanday o'zgaradi?
A) 2/3 marta kamayadi. B) o'zgarmaydi.
C) 1/3 marta kamayadi. D) 3 marta kamayadi.
95. Prujinaga 150 g yuk osilganda uning nisbiy deformatsiyasi 0,02 ga teng bo'ldi. Agar unga xuddi shunday prujina ketma-ket ulanib, 300 g yuk osilsa, uning nisbiy deformatsiyasi qanday bo'ladi? A) 0,01. B) 0,02. C) 0,04. D) 0,06.
96. Arqon ko'pi bilan 12 kg massali yukni ko'tara oladi. Shu arqon yordamida qanday massali yukni 2 m/s² tezlanish bilan ko'tarish mumkin (kg)? $g=10 \text{ m/s}^2$. A) 10. B) 15. C) 20. D) 30.
97. O'zgarmas 1,5 m/s² tezlanish bilan tushayotgan littdagi 40 kg massali bolaning vazni qanday bo'ladi (N)? $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 170. B) 230. C) 280. D) 340.
98. 14 kg massali yuk arqon yordamida 2,5 m/s² tezlanish bilan ko'tarilmoxda. Arqonning taranglik kuchini toping (N). $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 150. B) 165. C) 175. D) 180.
99. 2000 t massali kosmik kema Yerdan tik ko'tarilmoxda. Dvigatelning tortish kuchi 74 MN. Kema qanday tezlanish bilan ko'tariladi (m/s²)? $g=10 \text{ m/s}^2$. A) 17. B) 18. C) 27. D) 30.
100. Dinamometrga 5 kg yuk osilgan. U yuki bilan bir safar yuqoriga 1 m/s tezlik bilan, ikkinchi safar pastga 2 m/s² tezlanish bilan harakatlantirildi. Dinamometrning bu hollardagi ko'rsatishlari ayirmasini toping (N).
A) 5. B) 10. C) 40. D) 50.
101. Botiq ko'priknинг eng quyi nuqtasida tekis harakatlanayotgan avtomobilga qo'yilgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisi qanday yo'nalgan bo'ladi?
A) pastga. B) yuqoriga.
C) orqaga. D) oldinga.
102. Erkin tushayogan jism 4-sekund oxirida qanday tezlikka erishadi? $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 5. B) 10. C) 40. D) 50.
103. Erkin tushayogan jismning 2- va 5-sekund oxiridagi tezliklari nisbatini aniqlang.
A) 0,216. B) 0,4. C) 0,6. D) 1,67.
104. Qandaydir sayyorada jism 25 m balandlikdan 5 s da tushgan. Bu sayyoradagi erkin tushish tezlanishini toping (m/s²).
A) 2. B) 4. C) 10. D) 25.
105. Boshlang'ich tezliksiz H balandlikdan erkin tushayotgan jism harakatining oxirgi sekundida $3H/4$ masofani o'tdi. U qanday balandlikdan (m) tushgan? A) 5. B) 10. C) 20. D) 40.
106. Vertikal erkin tushayotgan jism oxirgi 3 s da 180 m yo'l o'tdi. U qancha vaqt (s) tushgan? $g=10 \text{ m/s}^2$. A) 4,5. B) 4,6. C) 5,5. D) 7,5.
107. Tosh 54 km/h tezlik bilan tik yuqoriga otildi. U qancha vaqt (ms) ko'tariladi? Havoning qarshilagini hisobga olmang. $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 100. B) 300. C) 500. D) 1500.
108. Yuqoriga tik otilgan jism 8 s dan so'ng otilgan joyiga qaytib tushdi. Uning dastlabki 6 s da o'tgan yo'llini toping (m). $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 60. B) 80. C) 100. D) 140.
109. Ikki sharcha bir nuqtadan bir xil 40 m/s tezlik bilan 4 s vaqt oralatib, tik yuqoriga otildi. 1-sharcha 2-sharcha bilan to'qnashish nuqtasidan yuqorida qanday yo'l o'tadi? Havo qarshilagini hisobga olmang. $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 20. B) 40. C) 60. D) 80.
110. Balandligi 35 m bo'lgan minora tomidan 30 m/s tezlik bilan tik yuqoriga tosh otildi. U qancha vaqtadan so'ng yerga tushadi (s)? $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 6,5. B) 7. C) 8. D) 9.
111. Balandligi 80 m bo'lgan minora tomidan 30 m/s tezlik bilan tik yuqoriga tosh otildi. U yerga qanday tezlikda tushadi (m/s)? $g=10 \text{ m/s}^2$.
A) 40. B) 45. C) 50. D) 55.
112. Kuzatuvchi tik yuqoriga otilgan jismning 45 m balandlikdan 8 s vaqt oralatib, ikki marta o'tganligini payqadi. Jism qanday tezlik bilan otilgan (m/s)? A) 35. B) 45. C) 50. D) 60.
113. Jism biror balandlikdan erkin tushishi uchun 1,4 s vaqt ketdi. O'sha balandlikning birinchi yarmini o'tish uchun qancha vaqt (min) ketgan? A) 1/60. B) 1/20. C) 3/25. D) 14/10.
114. Tosh erkin tushmoqda. Yo'Ining birinchi yarmini o'tish uchun ketgan vaqt, butun yo'Ini o'tish uchun ketgan vaqtning qanday qismini tashkil qiladi? A) 1/4. B) 1/2. C) 1/ $\sqrt{2}$. D) $\sqrt{2}$.
115. Tik yuqoriga otilgan jism yo'Ining ikkinchi yarmini 2 s da o'tsa, u qanday balandlikka ko'tariladi (m)? A) 20. B) 30. C) 40. D) 50.
116. Uch jism bir xil balandlikdan erkin tushyapti. 1-jismning boshlang'ich tezligi yo'q, 2- va 3-jismflarning boshlang'ich tezliklari gorizontal yo'nalgan ($v_2 < v_3$). Ularning yerga tushish vaqtlarini taqqoslang.
A) $t_1 < t_2 < t_3$. B) $t_1 = t_2 = t_3$. C) $t_1 > t_2 > t_3$. D) $t_1 < t_2 = t_3$.
117. Gorizontga burchak ostida otilgan jism traektoriyasining eng yuqori nuqtasida qanday tezlanishga ega bo'ladi? (g – erkin tushish tezlanishining son qiymati.)
A) g , yuqoriga yo'nalgan.
B) g , pastga yo'nalgan.
C) g , tezlik vektori bo'ylab yo'nalgan.
D) g , tezlik vektoriga qarshi yo'nalgan.
118. Gorizontga nisbatan burchak ostida otilgan toshning maksimal ko'tarilish balandligi 20 m va shu balandlikdagi tezligi 54 km/h bo'lsa, tosh yerga gorizontga nisbatan qanday burchak ostida tushadi?
A) 30° . B) 45° . C) $\arctg(4/3)$. D) $\arcsin(3/4)$.
119. Massasi 4 kg bo'lgan jism gorizontga nisbatan 30° burchak ostida 10 m/s tezlik bilan otildi. Uning harakatlanish vaqtidagi eng kichik kinetik eneriyasi qanday bo'ladi (J)? Havoning jism harakatiga qarshilagini hisobga olmang.
A) 60. B) 80. C) 120. D) 150.
120. Balandligi 80 m bo'lgan minoradan 72 km/h tezlik bilan gorizontal otilgan jismning uchish uzoqligini aniqlang (m).
A) 40. B) 45. C) 60. D) 80.

121. Jism 120 m balandlikdan gorizontal otildi. Bundan 4 s o'tgan paytda uning tezlik vektori gorizont bilan 45° burchak hosil qildi. U qanday tezlik bilan otildi? (m/s)?
 A) 25. B) 30. C) 40. D) 45.
122. Jism 20 m balandlikdan 17,3 m/s tezlik bilan gorizontal otildi. Uning 2 sekunddag'i ko'chish vektori gorizont bilan qanday burchak hosil qiladi? $g=10 \text{ m/s}^2$.
 A) 30° . B) 45° . C) 60° . D) 90° .
123. Jism gorizontga 60° burchak ostida 72 km/h boshlang'ich tezlik bilan otildi. Necha sekund dan so'ng tezlik vektori gorizont bilan 45° burchak hosil qiladi? $\sqrt{3} \approx 1,73$.
 A) 1 va 2. B) 2,4 va 0,9. C) 3. D) 0,73 va 2,73.
124. Gorizontga 45° burchak ostida otildi jismning uchish uzoqligi ko'tarilish balandligidan necha marta katta bo'ladi?
 A) 1,5. B) 2. C) 3. D) 4.
125. Sharcha 10 m/s tezlik bilan gorizontga 45° burchak ostida otildi va traektoriyaning eng yuqori nuqtasida gorizontga 45° burchak ostida joylashgan tekislik bilan absolut elastik to'qnashdi. Shundan so'ng u tik pastga harakatlandi. U yerga harakat boshidan qancha yaqt o'tgach tushadi(s)?
 A) 0,5. B) 1,1. C) 1,5. D) 2.
126. Oy uchun birinchi kosmik tezlikni (m/s) toping. Oyning radiusi 1700 km, uning sirtida erkin tushish tezlanishi Yerdagidan 6 marta kichik.
 A) 1100. B) 1650. C) 2400. D) 4300.
127. Sun'iy yo'ldosh orbitasining diametri 2 marta kamayganda uning tezligi qanday o'zgaradi?
 A) 2 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
 C) $\sqrt{2}$ marta ortadi. D) $\sqrt{2}$ marta kamayadi.
128. Sun'iy yo'ldosh orbitasining diametri 2 marta ortganda uning tezligi qanday o'zgaradi?
 A) 2 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
 C) $\sqrt{2}$ marta ortadi. D) $\sqrt{2}$ marta kamayadi.
- 129*. Agar havoning qarshiligi bo'limasa va energiyaning hammasi loydali ishga aylansa, 1 t massali sun'iy yo'ldoshni Yer sirti yaqinidagi doiraviy orbitaga chiqarish uchun qancha (kg) kerosin kerak bo'ladi? Yerning radiusi 6400 (6300) km, kerosinning solishtirma yonish issiqligi 46 MJ/kg, $g=9,8 \text{ m/s}^2$.
 A) 450. B) 682. C) 720. D) 872.
130. Kosmik kema zinchligi p bo'lgan sayyora sirti yaqinida aylana orbita bo'ylab aylanmoqda. Kemaning aylanish davri ifodasini toping.
 A) $\sqrt{\frac{6\pi}{G\rho}}$. B) $\sqrt{\frac{3\pi}{G\rho}}$. C) $\sqrt{\frac{2\pi\rho}{G}}$. D) $\sqrt{\frac{G}{2\pi\rho}}$.
131. Gorizontal sirtda massasi 4 kg bo'lgan jism yotibdi. U 1 m/s^2 tezlanish olishi uchun unga gorizontal yo'nalishda qanday kuch (N) ta'sir etishi kerak. Jism va sirt orasidagi ishqlanish koefitsienti 0,3 ga teng.
 A) 1,6. B) 8. C) 16. D) 160.
132. Gorizontal sirtda yotgan 30 kg massali jismga bikrili 3 kN/m bo'lgan prujina ulangan. Prujinani gorizontal yo'nalishda 5 cm/s tezlik bilan cho'za boshlashdi. Agar ishqlanish koefitsienti 0,1 ga teng bo'lsa, necha sekunddan so'ng jism joyidan qo'zg'aladi?
 A) 0,002. B) 0,2. C) 5. D) 20.
133. Otning tortish kuchi 1200 N. U qanday massali chanani (kg) gorizontal sirt bo'ylab tekis torta oladi? Ishqlanish koefitsienti 0,15 ga teng.
 A) 480. B) 600. C) 800. D) 960.
134. m massali yuksiz avtomobilning tormozlanish yo'li s_1 , $m/2$ massali yuk bilan s_2 , va m massali yuk bilan s_3 . Bu yo'llarni taqqoslang.
 A) $s_1 < s_2 < s_3$. B) $s_1 = s_2 = s_3$.
 C) $s_1 < s_2 = s_3$. D) $s_1 > s_2 > s_3$.
135. Shossening gorizontal qismida 30 m/s tezlik bilan ketayotgan avtomobil tormozlanish yo'lining minimal qiymatini aniqlang (m). Ishqlanish koefitsienti 0,3 ga teng, $g=10 \text{ m/s}^2$.
 A) 150. B) 200. C) 300. D) 400.
136. Tezligi 5 m/s, massasi 40 kg bo'lgan jism ishqlanish kuchi ta'sirida 25 m yo'll o'tib to'xtadi. Ishqlanish kuchini toping (N). $g=10 \text{ m/s}^2$.
 A) 2. B) 5. C) 10. D) 20.
137. Massasi 4 kg bo'lgan jism o'zgarmas kuch ta'sirida 2 m/s^2 tezlanish bilan harakatlanmoqda. Jism va sirt orasidagi ishqlanish koefitsienti 0,25 ga teng. Jismga qo'yilgan kuchni toping (N).
 A) 16. B) 18. C) 20. D) 24.
138. Gorizontal sirtda turgan 8 kg massali jismga gorizontal yo'nalishda 18 N kuch qo'yilganda, u joyidan $1,25 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan qo'zg'algan bo'lsa, jism va sirt orasidagi ishqlanish koefitsienti nimaga teng?
 A) 0,1. B) 0,25. C) 0,3. D) 0,4.
139. Gorizontal sirtda turgan 4 kg massali jism 1 m/s^2 tezlanish olishi uchun unga gorizontal yo'nalishda qanday kuch (N) qo'yish kerak? Jism va sirt orasidagi ishqlanish koefitsienti 0,3 ga teng.
 A) 1,6. B) 8. C) 16. D) 160.
140. Mototsikl 15 m/s^2 tezlanish bilan harakat qilishi uchun uning tortish koefitsienti (tortish kuchining og'irlik kuchiga nisbati) qanday bo'llishi kerak? Qarshilik koefitsienti 0,5 ga teng deb hisoblang.
 A) 0,5. B) 0,75. C) 1. D) 2.
141. Jism ishqlanish kuchi ta'siri ostida $28,8 \text{ km/h}$ boshlanich tezlik va -1 m/s^2 tezlanish bilan harakatlanmoqda. U 6 s da necha metr yo'll o'tadi?
 A) 18. B) 30. C) 48. D) 56.
142. Yengil avtomobil tekis yo'lda 90 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Motor o'chirilgach, u 625 m masofani o'tib to'xtadi. Qarshilik koefitsientini toping.
 A) 0,02. B) 0,05. C) 0,075. D) 0,09.
143. Zichligi 5 g/cm^3 bo'lgan jism suvda qanday tezlanish bilan cho'kadi (m/s^2)? Qarshilik kuchini hisobga olmang.
 A) 4. B) 5. C) 6. D) 8.
144. Massasi 12 kg bo'lgan jism havoda $9,5 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan tik tushmoqda. Jismga ta'sir qilayotgan qarshilik kuchini toping (N). $g=9,8 \text{ m/s}^2$.
 A) 1,6. B) 2,4. C) 3,6. D) 4,8.
- 145*. Massasi 0,8 kg bo'lgan jism $9,2 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan vertikal tushayotgan bo'lsa, uning harakatiga havoning o'rtacha qarshilik kuchi qanday (N)? $g=9,8 \text{ m/s}^2$.
 A) 0,48. B) 0,64. C) 6,4. D) 7,36.

146. Zichligi suvnikidan 2,5 marta katta, massasi 12,5 kg bo'lgan jismni suvda 2 m/s^2 tezlanish bilan ko'tarish uchun qanday kuch kerak bo'ladi (N)? A) 75. B) 100. C) 125. D) 250.
147. Ko'l-tubida turgan va massasi 10 kg, zichligi 2000 kg/m^3 bo'lgan jismni 2 m/s^2 tezlanish bilan ko'tarishda arqonning taranglik kuchi qanday bo'ladi (N)? $g=10 \text{ m/s}^2$. A) 70. B) 80. C) 100. D) 120.
148. Vaznsiz qo'zg'almas blok orqali o'tkazilgan vaznsiz ip uchlariga massalari 0,4 va 0,6 kg bo'lgan ikki yuk osilgan. Ishqalanish yo'q. Yuklarning tezlanishini toping (m/s^2). A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
149. Vaznsiz qo'zg'almas blok orqali o'tkazilgan vaznsiz ip uchlariga massalari 0,3 va 0,7 kg bo'lgan ikki yuk osilgan. Ishqalanish yo'q. Ipning taranglik kuchini toping (N). A) 2,7. B) 3,8. C) 4,2. D) 5,4.
150. Vaznsiz qo'zg'almas blok orqali o'tkazilgan vaznsiz ip uchlariga massalari 1,2 va 0,8 kg bo'lgan ikki yuk osilgan. Ular bir xil balandlikda ushlab turilibdi. Qo'yib yuborilgandan qancha vaqt (s) o'tgach ular orasidagi masofa 72 cm bo'ladi? Ishqalanish yo'q. A) 0,5. B) 0,6. C) 0,7. D) 0,8.
- 151*. Uzunligi 5 m, balandligi 3 m bo'lgan qiya tekislikda yotgan 4 kg massasli jismni ushlab turish uchun kamida qanday (N) kuch qo'yish kerak? Jism va sirt orasidagi ishqalanish koefitsienti 0,5 ga teng. A) 5. B) 8. C) 10. D) 12.
152. Uzunligi 8 m, balandligi 40 cm bo'lgan qiya tekislikdagi jism ishqalanish bo'limganda qanday tezlanish bilan tushadi (m/s^2)? A) 0,5. B) 0,8. C) 1,2. D) 1,5.
153. Qiyalik burchagi α bo'lgan qiya tekislik bo'ylab jism yuqoriga tekis sudralayapti. Ishqalanish koefitsienti μ . Jismni ko'chirishda bajarilgan ishning qanday qismi ichki energiyani oshirishga sarflanadi?
- $$A) \frac{\mu}{\mu+\tan\alpha}. B) \frac{\mu}{\tan\alpha-\mu}. C) \frac{\mu}{-\tan\alpha+\mu}. D) \frac{\mu}{1+\mu\tan\alpha}.$$
154. Vazni 25 kN bo'lgan avtomobilning og'irlilik markazi g'ildiraklar orasidagi masofani 2:3 nisbatda bo'lsa, har bir juft g'ildirakning yo'lga beradigan bosim kuchlari qanday bo'ladi (kN)? A) 8; 17. B) 9; 16. C) 15; 10. D) 20; 5.
155. 1 m uzunlikdagi ipga osilgan 1 kg massali jism gorizontal tekislikda aylanmoqda. Ipning gorizontdan og'ish burchagi 30° . Ipning taranglik kuchini toping (N). A) 5. B) 10. C) 17,3. D) 20.
156. Devorga 4 kg massali narvon 30° burchak ostida tirab qo'yilgan. Narvonning og'irlilik markazi uning yuqori uchidan narvon uzunligining $2/5$ qismiga teng masofada joylashgan. Narvon devorga bosim ko'rsatmasligi uchun uning o'rjasiga gorizontal yo'nalishda qanday kuch qo'yish kerak (N)? A) 14. B) 16. C) $16\sqrt{2}$. D) $16\sqrt{3}$.
157. 1-jismning tezligi 2-jism tezligidan 2 marta katta, ammo massasi 4 marta kichik. Ularning impulslarini taqqoslang.
- A) $p_1=2p_2$. B) $p_1=4p_2$. C) $p_2=2p_1$. D) $p_2=4p_1$.
158. 0,8 s da jism impulsini $20 \text{ kg}\cdot\text{m/s}$ ga o'zgartiruvchi kuchni toping (N). A) 8. B) 16. C) 20. D) 25.
159. 20 m/s tezlik bilan yuqoriga tik otilgan 200 g massali jism 15 m balandlikdagi gorizontal to'siqqa mutlaq elastik urilib qaytdi. Urilishdagi kuch impulsini ($\text{N}\cdot\text{s}$) toping. A) 2. B) 4. C) 6. D) 8.
160. 100 g massali jism 4 m balandlikdan 1 m/s tezlik bilan gorizontal otildi. Agar gorizontal sirtga urilish mutlaq noelastik bo'lib, $0,01 \text{ s}$ davom etgan bo'lsa, urilish kuchi qanday bo'lgan (N)? A) 0,09. B) 0,18. C) 9. D) 90.
161. 15 m/s tezlik bilan yuqoriga tik otilgan $1,5 \text{ kg}$ massali jism $4,1 \text{ m}$ balandlikdagi gorizontal to'siqqa mutlaq elastik urilib qaytdi. Urilishdagi kuch impulsini ($\text{N}\cdot\text{s}$) toping. A) 25. B) 28. C) 36. D) 42.
162. Temirchi yasayotgan buyumiga 4 kg massali bolg'a bilan 36 km/h tezlikda zarb berdi (zarb mutlaq noelastik). Agar zarb 50 ms davom etgan bo'lsa, uning kuchi qanday bo'lgan (N)? A) 360. B) 400. C) 600. D) 800.
163. Azot gazi molekulasing idish devoriga 60° burchak ostida mutlaq elastik urilishi natijasida impulsining o'zgarishi moduli $1,4 \cdot 10^{-23} \text{ kg}\cdot\text{m/s}$ ga teng bo'ldi. Molekula tezligini toping (m/s). $N_A=6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$, $M=28 \text{ g/mol}$. A) 300. B) 1000. C) 1200. D) 2000.
164. 750 g massali jismning harakat qonuni $x=2t+2t^2$ ko'rinishga ega. Uning impulsining $t_1=5 \text{ s}$ dan $t_2=10 \text{ s}$ gacha oraliqdagi o'zgarishini toping ($\text{kg}\cdot\text{m/s}$). A) 0. B) 10. C) 15. D) 20.
165. 505 m/s tezlik bilan uchayotan 200 kg massali snaryad reislarga parallel ravishda uchib, 20 t massali tinch turgan qumli platformaga urildi va qumga kirib qoldi. Platforma olgan tezlikni toping (m/s). A) 4,55. B) 4,95. C) 5. D) 5,05.
166. 6 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan 30 kg massali aravaga 6 kg yuk qo'yildi. Bunda arava tezligi qanchaga kamayadi (m/s)? A) 0,6. B) 0,9. C) 1. D) 1,2.
167. Miltiqdan o'q v tezlikda uchib chiqdi. Agar miltiqning massasi o'qning massasidan 250 marta katta bo'lsa, o'q otishshi paytida miltiq qanday tezlik oladi?
- $$A) 0. B) v. C) 250v. D) v/250.$$
168. To'pponchaning massasi o'qnikidan 100 marta katta. O'q to'pponchadan v tezlikda uchib chiqsa, to'pponcha qanday tezlik oladi?
- $$A) 0. B) 0,005v. C) 0,01v. D) 0,05v.$$
169. Plastilindan yasalgan ikki sharcha bir-biriga tomon uchib kelib markaziy to'qnashishdi. Agar sharchalarning massalari $m_1=3m_2$ va tezliklari $v_2=6v_1$ munosabatda bo'lsa, to'qna shuvdan so'ng ular qanday v tezlik bilan harakatlanadi?
- $$A) v=\frac{v_1-v_2}{2}. B) v=\frac{v_1+v_2}{2}. C) v=\frac{v_2}{4}=\frac{3v_1}{2}. D) v=\frac{v_2}{8}=\frac{3v_1}{4}.$$

170. Snaryad 40 m/s tezlik bilan gorizontga 60° burchak ostida otildi. U traektoriyaning eng yuqori nuqtasida teng ikkiga bo'lindi. Bo'laklardan biri gorizontga nisbatan 45° burchak ostida v_1 tezlik bilan, ikkinchisi esa vertikal pastga v_2 tezlik bilan uchib ketdi. Bu v_1 va v_2 tezliklarni toping (m/s).
A) 40, 30. B) 40, 40. C) 57, 40. D) 57, 46.
171. Tinch turgan jism o'zaro 60° burchak tashkil qiluvchi 30 va 50 N kuchlar ta'sirida 4 m ko'chgan. Bunda qanday ish bajarilgan (J)?
A) 140. B) 280. C) 420. D) 560.
172. Qirrasining uzunligi 1 m, zichligi $0,6 \text{ g/cm}^3$ bo'lgan kub suvda suzmoqda. Uni svuga to'la botirish uchun qanday minimal ish (J) bajarish kerak? A) 650. B) 800. C) 850. D) 900.
173. Gorizontal stol sirtida turgan 14 kg massali g'o'lani 50 cm masofaga surish uchun 14 J ish bajarildi. G'o'la bilan stol orasidagi ishqalanish koefitsientini toping.
A) 0,1. B) 0,2. C) 0,3. D) 0,4.
174. Javoblardan mosini toping. Jism va jismalar sistemasining energiyasi deb, ularning ... aniqlovchi fizik kattalikka aytildi.
A) ish bajara olish qobiligatini.
B) moddalarini bir turdan boshqa turlarga aylanib turishini.
C) o'zaro vaziyatini. D) zarralarining tinimsiz betartib harakatini.
175. Potensial energiya deb nimaga aytildi? Jismning potensial energiyasi deb, uning ... bilan bog'liq bo'lgan energiyasiga aytildi.
A) fazodagi vaziyati. B) mexanik harakati
C) ilgarilanma harakati
D) zarralarining betartib harakati
176. Jism erkin tushish vaqtining boshlang'ich $1/3$ qismida og'irlik kuchining ishi 8 J bo'lsa, tushish vaqtining qolgan qismidagi ish qanday bo'ladi?
A) 5,3. B) 12. C) 64. D) 72.
177. Har birining massasi 1,5 kg va balandligi 6 cm bo'lgan 10 dona g'isht gorizontal tekislikda yotibdi. Ularni bir-birining ustiga taxlash uchun qanday ish bajarish kerak (J)?
A) 3,6. B) 4,05. C) 36. D) 40,5.
178. Massasi 4 kg bo'lgan jism qiyaligi 30° , uzunligi 8 m bo'lgan qiya tekislik uchiga olib chiqildi. Bunda jism qanday potensial energiyaga ega bo'ladi (J)? Potensial energiya qiya tekislikning asasida nolga teng bo'ladi deb hisoblang.
A) 120. B) 160. C) 200. D) 240.
179. Prujinani 2 marta ko'proq cho'zish uchun necha marta ko'proq ish bajarish kerak?
A) 2. B) 3. C) 4. D) o'shancha.
180. 10 cm uzunlikdagi prujinaga 500 g yuk osilganda, u 2 cm cho'zildi. Prujinaning potensial energiyasini toping (J).
A) 0,05. B) 0,1. C) 0,5. D) 5.
181. Bikrligi 100 N/m bo'lgan prujinasi 2 cm ga siqilgan to'pponchadan otilgan o'qning kinetik energiyasi qanday bo'ladi (mJ)?
A) 16. B) 20. C) 40. D) 80.
182. Bikrligi 100 N/m bo'lgan prujinani 2 dan 3 cm gacha cho'zishda bajarilgan ish, uni 5 dan 6 cm gacha cho'zishda bajarilgan ishdan necha marta kichik bo'ladi? A) 2. B) 2,2. C) 3,3. D) 4.
183. 20 g massali shareha bikrligi 2000 N/m bo'lgan prujinaga qanday balandlikdan (m) tushganda, prujina 1 em siqladi?
A) 0,5. B) 2. C) 4. D) 8.
184. 40 cm uzunlikdagi ipga osilgan jismning muvozanat vaziyatidan o'tishdagi tezligi 2 m/s bo'lishi uchun ipni qanday α burchakka og'dirib, qo'yib yubarish kerak?
A) 15° . B) 30° . C) 45° . D) 60° .
185. Tosh H balandlikdan boshlang'ich teziksiz erkin tushmoqda. Kinetik energiyasi potensial energiyasiga teng bo'ladigan nuqtada toshning tezligi qanday bo'ladi?
A) gH . B) $2gH$. C) \sqrt{gH} . D) $\sqrt{2gH}$.
186. Boshlang'ich teziksiz h balandlikdan erkin tushayotgan jismning kinetik energiyasi yerdan qanday balandlikda potensial energiyasidan 2 marta katta bo'ladi?
A) $h/2$. B) $h/3$. C) $h/4$. D) $2h/3$.
187. Yuqoriga tik otilgan jismning kinetik va potensial energiyalari qanday balandlikda tenglashadi?
A) eng yuqori ko'tarilish balandligida.
B) ko'tarilish balandligining yarmida.
C) ko'tarilish balandligining $3/4$ qismida.
D) bunday bo'lishi mumkin emas.
188. v_0 boshlang'ich tezlik bilan yuqoriga tik otilgan jismning potensial va kinetik energiyalari qanday balandlikda tenglashadi? g – erkin tushish tezlanishi. A) $\frac{v_0^2}{4g}$. B) $\frac{v_0^2}{3g}$. C) $\frac{v_0^2}{2g}$. D) $\frac{2v_0^2}{g}$.
189. 4,2 m balandlikdan pastga otilgan jism yerga mutlaq elastik urilishi natijasida 6 m balandlikka ko'tarildi. Jism pastga qanday tezlik bilan otilgan (m/s)? Havoning qarshiligidini hisobga olmang. $g=10 \text{ m/s}^2$. A) 3. B) 4. C) 5. D) 6.
190. Sharcha 2,56 m balandlikdan boshlang'ich teziksiz erkin tushib, taglikka uriladi va sakrab yana yuqoriga ko'tariladi. Taglikka urilishda sharcha tezligining yarmini yo'qotsa, uchinchini marta urilgandan so'ng u qanday balandlikka ko'tariladi (cm)? A) 4. B) 8. C) 12. D) 16.
191. Ishchi g'ildiragining aylanishlar chastotasi n bo'lgan markazdan qochma nasos svuni h balandlikka ko'taradi. G'ildirakning radiusini toping. A) $\frac{\sqrt{gh}}{\sqrt{2\pi n}}$. B) $\frac{\sqrt{2gh}}{\pi n}$. C) $\sqrt{\frac{gh}{\pi n}}$. D) $\frac{gh}{\pi n}$.
192. 45 m balandlikdan erkin tushayotgan 800 g massali jism yerga 25 m/s tezlik bilan urilgan bo'lsa, havoning qarshilik kuchi bajargan ishning moduli qanday (J)?
A) 70. B) 110. C) 130. D) 150.
193. Erkin tushayotgan 2 kg massali jismning tezligi 5 m/s masofada 2 dan 10 m/s gacha oshidi. Havoning qarshilik kuchini yengishda bajarilgan ishni toping (J). $g=9,8 \text{ m/s}^2$.
A) 2. B) 4. C) 25. D) 48.
- 194*. Qiya tekislikning balandligi 6 cm, uzunligi 10 cm, ishqalanish koefitsienti $\mu=0,3$. Uning FIK ni baholang (%).
A) 65. B) 71. C) 75. D) 90.

195. Uchayotgan samolyotning qanotlariga ko'tarish kuchi ta'sir etishini qaysi qonun yordamida tushuntirish mumkin?
 A) Arximed qonuni. B) Nyutonning I qonuni.
 C) Paskal qonuni. D) Bernulli qonuni.
196. Quvurdagi suvning tezligi 3,6 km/h. Quvur dan har soatda 7,2 t suv oqib o'tsa, uning ko'n dalang kesim yuzi qanday (cm^2)?
 A) 1. B) 2. C) 6,28. D) 20.
197. Siklik chastota son jihatdan ... teng.
 A) bitta tebranish vaqtiga.
 B) 1 sekunddagagi tebranishlar soniga.
 C) π sekunddagagi tebranishlar soniga.
 D) 2π sekunddagagi tebranishlar soniga.
- 198*. Bikrligi k , uzunligi l bo'lgan prujinaga osilgan m massali jismning bo'ylama tebranishlar chastotasi qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?
 A) 5. B) 7. C) 10. D) 14.
408. Kuchi 21 A bo'lgan tok qarshiliklari 3 va 4 Ω bo'lgan ikki tarmoqqa bo'linadi. Tarmoqlardagi tok kuchlarini aniqlang (A).
 A) 11; 10. B) 14; 7. C) 5; 16. D) 12; 9.
409. Ikkita bir xil shunt o'zaro ketma-ket ulanib, so'ngra ampermetrga ulansa, uning o'lehash chegarasi 4,5 marta ortadi. Ikkala shunt ampermetrga parallel ulansa, uning o'lehash chegarasi necha marta ortadi?
 A) 6,5. B) 9. C) 15. D) 18.
410. 3 ta bir xil chiroq o'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ketma-ket ulansa, har biri chiroqnинг quvvati necha marta kamayadi?
 A) $\sqrt{3}$. B) 3. C) 9. D) 12.
411. Har birining quvvati 400 W bo'lgan ikkita chiroq o'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ketma-ket ulansa, umumiy quvvat qanday bo'ladi (W)?
 A) 25 B) 50. C) 100. D) 200.
412. Qarshiligi 14 Ω bo'lgan o'tkazgich o'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ulangan. Unda ajralayotgan elektr quvvat 4 marta kamayishi uchun unga qanday qarshilikli (Ω) o'tkazgichni ketma-ket ulash kerak?
 A) 3,5 B) 7. C) 8. D) 14.
413. Qarshiligi 330 Ω bo'lgan isitkichdan o'tayotgan tokning kuchi qanday (A) bo'lganda 0°C temperaturali 4 g muz 4 s da erib ketadi? Muzning solishtirma erish issiqligi $3,3 \cdot 10^5$ J/kg.
 A) 0,5. B) 1. C) 2. D) 3,6.
414. Elektr plita tuzatilayotganda uning spirali uzunligining 0,2 ulushiga qisqartirildi. Bunda plitaning quvvati necha marta ortdi?
 A) 1,25. B) 1,5. C) 2. D) 3.
415. Elektr toki manbaining elektr yurituvchi kuchi deb nimaga aytildi? Tok manbaining EYKi deb ... miqdor jihatdan teng bo'lgan fizikaviy katalikka aytildi.
 A) elektronni berk zanjir bo'ylab ko'chirishda chet kuchlarning bajargan ishiga
 B) birlik musbat zaryadni berk zanjir bo'ylab ko'chirishda chet kuchlarning bajargan ishiga
 C) zaryadlarni berk zanjir bo'ylab ko'chirishda chet kuchlarning bajargan ishiga
 D) birlik manfiy zaryadni berk zanjir bo'ylab ko'chirishda chet kuchlarning bajargan ishiga.
416. Doimiy tok manbai ichidagi chet kuchlar 6 C zaryadni elektrostatik kuchlarga qarshi yonalishda ko'chirishda 300 J ish bajardi. Tok manbaining EYKini toping (V).
 A) 0,02. B) 25. C) 50. D) 450.
417. Ichki qarshiligi 40 m Ω bo'lgan tok manbai qisqa tutashganda, tok kuchi 300 A bo'ldi. Manbaning EYK ini aniqlang (V).
 A) 9. B) 10. C) 12. D) 24.
418. Ichki qarshiligi 2 Ω bo'lgan tok manbaiga 5 Ω qarshilik ulanganda, manba qisqichlaridagi kuchlanish 10 V gacha pasaydi. Manbaning EYKini toping (V). A) 10. B) 12. C) 14. D) 16.
419. EYKi 8 V bo'lgan tok manbaiga qarshiligi 4 Ω bo'lgan rezistor ulangan. Agar zanjirning to'la qarshiligi 5 Ω bo'lsa, rezistor uchlaridagi kuchlanish qanday bo'ladi (V)?
 A) 4. B) 4,5. C) 6. D) 6,4.
420. EYKi 15 V bo'lgan tok manbaiga qarshiligi 3 Ω bo'lgan rezistor ulangan. Agar zanjirning to'la qarshiligi 5 Ω bo'lsa, manba ichidagi kuchlanish tushuvi qanday bo'ladi (V)?
 A) 3. B) 5. C) 6. D) 9.
421. Qarshiligi 2 Ω dan bo'lgan 6 ta o'tkazgich justlab parallel ulandi. Uchala just o'z navbatida ichki qarshiligi 1 Ω bo'lgan batareyaga ketma-ket ulandi. Bunda har bir o'tkazgichdan 2,5 A tok o'tdi. Agar ulardan biri uzilsa, zanjirdagi tok kuchi qanday bo'ladi (A)?
 A) 1. B) 2. C) 4. D) 6.
422. Ichki qarshiligi 2 Ω bo'lgan tok manbaiga qarshiligi 2 Ω bo'lgan o'tkazgich ulangan. O'tkazgichda 25 W elektr quvvat ajralmoqda. O'tkazgichga 6 Ω qarshilikli boshqa o'tkazgich ketma-ket ulansa, birinchi o'tkazgichdagi quvvat qanday bo'ladi (W)?
 A) 3,1 B) 4. C) 5. D) 12,5.
423. Ichki qarshiligi 10 Ω va EYKi 51 V bo'lgan tok manbaiga voltmetr ulanganda, u 50V kuchlanishni ko'rsatdi. Voltmetrning qarshiliginini toping (Ω). A) 20. B) 50. C) 100. D) 500.
424. Qaysi shart bajarilganda ichki qarshiligi r bo'lgan N ta bir xil galvanik element R qarshilikka ketma-ket va parallel ulangandagi tok kuchlari bir xil bo'ladi?
 A) $R=r$. B) $R=2r$. C) $R=r/2$. D) $R=1,5r$.
425. Elektr yoyi yongan vaqtida elektrodlar orasidagi kuchlanish qanday o'zgaradi?
 A) ortadi. B) kamayadi. C) o'zgarmaydi.
 D) avval ortadi so'ngra kamayadi.
426. EYKi 20 V bo'lgan tok manbaiga avval 4 Ω qarshilik, so'ngra 9 Ω qarshilik ulandi. Bu ikki holda tashqi zanjirda bir xil quvvat ajraldi. Shu quvvatni toping (W). A) 4. B) 5. C) 12. D) 16.
427. EYKlari $\epsilon_1=3,4$ V va $\epsilon_2=2,6$ V, ichki qarshiliklari $r_1=r_2=1$ Ω bo'lgan manbalar o'zaro parallel ulanib, batareya hosil qilindi. Unga ulangan iste'molchining qarshiligi 2,5 Ω bo'lsa, undagi tok kuchi qanday (A)?
 A) 1. B) 1,7. C) 2,4. D) 2.

428. Ikkita parallel o'tkazgichdan bir xil yo'nalishda tok oqayotgan bo'lса, ular qanday ta'sirlashadi?
 A) ta'sirthashmaydi.
 B) tortishadi. C) itarishadi.
 D) bir xil yo'nalishda burilishadi.
429. Simob suyuqligida elektr tokining qanday ta'sirlari mavjud bo'ladi?
 A) faqat issiqlik. B) issiqlik, magnit.
 C) faqat kimyoviy. D) barcha ta'sirlari.
430. Ikkita parallel to'g'ri tokli o'tkazgich havoda bir-biridan 20 cm masofada turibdi. Ulardagi tok yo'nalishlari bir xil bo'lib, kuchlari 16 va 1,5 A ga teng. Ularning o'ttasidagi nuqtada magnit induksiyasi qanday (mT) bo'ladi? $\mu_0=4\pi\cdot10^{-7}$ H/m.
 A) 0,016. B) 0,029. C) 0,04. D) 0,16.
431. Tokli to'g'ri o'tkazgichdan kuzatilayotgan nuqttagacha bo'lgan masofa 4 marta ortganda, magnit maydon induksiyasi qanday o'zgaradi?
 A) 2 marta kamayadi. B) 4 marta kamayadi.
 C) 2 marta ortadi. D) 4 marta ortadi.
432. Aktiv uzunligi 40 cm bo'lgan 50 A tokli o'tkazgich induksiyasi 4 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga 30° burchak ostida joylashgan. Unga maydon tomonidan ta'sir qilayotgan kuchni toping (mN).
 A) 4,5. B) 20. C) 40. D) 50.
433. Aktiv uzunligi 40 cm bo'lgan o'tkazgichdan 4 A tok ogmoqda. Induksiyasi 0,2 T bo'lgan bir jinsli magnit maydon unga perpendikular yo'naligan. O'tkazgich magnit maydonga va o'ziga perpendikular yo'nalishda 20 cm siljishida bajarilgan ishni toping (mJ).
 A) 6,4. B) 32. C) 64. D) 3200.
434. 0,5 m uzunlikdagi o'tkazgich magnit induksiyasi 0,1 T bo'lgan maydonda joylashgan. Undan 2 A tok ogqanda, unga 0,05 N kuch ta'sir qiladi. O'tkazgich va induksiya vektori orasidagi burchak sinusini toping.
 A) $1/2$. B) $\sqrt{2}/2$. C) $\sqrt{3}/2$. D) $\sqrt{3}/3$.
435. 1,4 m uzunlikdagi o'tkazgich magnit induksiyasi 0,25 T bo'lgan maydonda joylashgan. Undan 12 A tok ogqanda, unga 2,1 N kuch ta'sir qilishi uchun o'tkazgich va induksiya vektori orasidagi burchak qanday bo'lishi kerak?
 A) 0. B) 30° . C) 45° . D) 60° .
436. Yuzi $0,5 \text{ m}^2$ bo'lgan 4 A tokli ramkaga 16 N·m kuch momenti ta'sir qilmoqda. Magnit maydon induksiyasi kamida qanday qiymatiga ega (T)?
 A) 1. B) 4. C) 8. D) 16.
437. Yuzi 3 m^2 bo'lgan 2 A tokli ramkaga maksimal qiymati 0,6 N·m bo'lgan kuch momenti ta'sir qilmoqda. Ramka joylashgan bir jinsli magnit maydonning induksiyasi qanday (T)?
 A) 0,1. B) 0,2. C) 0,4. D) 1.
438. Zaryadlangan zarra bir jinsli magnit maydonga induksiya chiziqlariga 30° burchak ostida uchib kiradi. U qanday traektoriya bo'ylab harakatlanadi?
 A) vintsimon chiziq. B) aylana. C) parabola. D) giperbola.
439. Tezligi 10^7 m/c bo'lgan elektron induksiyasi 10^{-2} T bo'lgan bir jinsli magnit maydonga induksiya chiziqlariga tik ravishda uchib kirdi. U chizgan aylana radiusini (cm) aniqlang.
- $e=1,6\cdot10^{-19} \text{ C}$, $m_e=9\cdot10^{-31} \text{ kg}$.
 A) 0,56. B) 1. C) 5,6. D) 10.
440. Induksiyasi 2,8 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonga $2\cdot10^7$ m/s tezlik bilan elektron uchib kirdi. U chizgan aylananing radiusini toping (cm). $e=1,6\cdot10^{-19} \text{ C}$, $m_e=9\cdot10^{-31} \text{ kg}$.
 A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
441. Induksiyasi 16,7 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonga induksiya chiziqlariga tik yo'nalishda uchib kirgan proton aylana traektoriya bo'ylab harakatlanadi. Protonning 3,14 s ichidagi aylanishlar sonini toping. $e=1,6\cdot10^{-19} \text{ C}$, $m_p=1,67\cdot10^{-27} \text{ kg}$.
 A) $4\cdot10^5$. B) $8\cdot10^5$. C) $3\cdot10^6$. D) $6\cdot10^6$.
442. Bir jinsli magnit maydonda aylanayotgan zarraning kinetik energiyasi 9 marta oshirila, uning aylanish davri qanday o'zgaradi? Zarraning tezligi yorug'lik tezligidan ancha kichik deb hisoblang.
 A) o'zgarmaydi. B) 9 marta ortadi.
 C) 3 marta kamayadi. D) 3 marta ortadi.
443. Magnit maydon induksiyasi 2 marta ortganda, maydonda aylanayotgan protonga ta'sir etuvchi Lorens kuchi o'zgarmay qolishi uchun protonning tezligi qanday o'zgarishi kerak?
 A) 2 marta ortishi. B) 2 marta kamayishi.
 C) 4 marta ortishi. D) 4 marta kamayishi.
- 444*. α -zarra $4\cdot10^6$ m/s tezlik bilan induksiyasi $0,15 \text{ T}$ bo'lgan bir jinsli magnit maydonda harakatlanamoqda. Tezlik induksiya vektori bilan 60° li burchak tashkil etsa, zarraning traektoriyasi bo'lgan vintsimon chiziqning radiusi qanday (m) bo'ladi? $q=3,2\cdot10^{-19} \text{ C}$, $m=6,64\cdot10^{-27} \text{ kg}$.
 A) 0,32. B) 0,48. C) 0,72. D) 2,4.
445. Induksiyasi 40 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonga uchib kirgan α -zarra radiusi 16,6 cm bo'lgan traektoriya bo'ylab aylanadi. Unga ta'sir etuvchi markazga intilma kuchni toping (N). $q=3,2\cdot10^{-19} \text{ C}$, $m=6,7\cdot10^{-27} \text{ kg}$.
 A) $1,0\cdot10^{-16}$. B) $3,2\cdot10^{-16}$. C) $1,6\cdot10^{-15}$. D) $4,1\cdot10^{-15}$.
446. Mis o'tkazgichning 50°C dagi qarshiligi 2Ω . Uning 100°C dagi qarshiligini (Ω) toping. Mis qarshiligining temperaturaviy koefitsienti $0,004 \text{ K}^{-1}$ ga teng.
 A) 0,5. B) 1,16. C) 2,33. D) 4,66.
447. Aluminiy o'tkazgichning qarshiligi 0°C dagi nisbatan 3 marta ortishi uchun uni qanday temperaturagacha ($^\circ\text{C}$) qizdirish kerak? Aluminiy qarshiligining temperaturaviy koefitsienti $0,004 \text{ K}^{-1}$ ga teng.
 A) 300. B) 500. C) 600. D) 900.
448. n -turdag'i yarimo'tkazgichlarda elektr toki qaysi zarralar hisobiga paydo bo'ladi?
 C) musbat ionlar va elektronlar.
 A) asosan kovaklar. B) asosan elektronlar.
 D) teng miqdorda elektronlar va kovaklar.
449. Tranzistor nimalardan tashkil topgan?
 A) katod va anoddan. B) baza va emitterdan.
 C) emitter va kollektordan.
 D) emitter, baza va kollektordan.
450. Vakuumda elektr toki qanday zarralarning harakati tusayli paydo bo'ladi?
 A) ionlar. B) elektronlar. C) protonlar.
 D) ixtiyoriy zaryadlangan zarralar.

451. Katod nurlari – katoddan anodga tez harakat qiluvchi ... oqimi.
A) elektronlar. *B) fotonlar.* *C) protonlar.* *D) pozitronlar.*
452. Katod potensialining ishorasi va kation zaryadining ishorasi qanday bo'ladi?
A) katod -, kation +. *B) katod +, kation -.*
C) katod -, kation -. *D) katod +, kation +.*
453. Sulfat kislota (H_2SO_4) eritilgan suvda elektr tokining qanday ta'sirlari mavjud bo'ladi?
A) barcha ta'sirlari. *B) faqat issiqlik.*
C) faqat kimyoviy. *D) faqat magnit.*
454. Simobda elektr tokining qanday ta'sirlari namoyon bo'ladi?
A) barcha ta'sirlari. *B) faqat issiqlik.*
C) issiqlik, magnit. *D) faqat kimyoviy.*
455. Qarshilikning termik koefitsienti qanday muddalar uchun manfiy?
A) dielektriklar. *B) elektrolitlar, yarimo'tkazgichlar.*
C) elektrolitlar, metallar. *D) metallar.*
456. Elektroliz vaqtida $CuSO_4$ eritmasidan 200 C zaryad o'tsa, katoda qancha (mg) mis ajraladi? Mis uchun $k=0,329 \text{ mg/C}$.
A) 7,3. *B) 9,6.* *C) 16,5.* *D) 65,8.*
457. $CuSO_4$ eritmasidagi tok kuchi 50 s vaqt ichida 0 dan 4 A gacha tekis ortib borsa, katoda qancha (mg) mis ajraladi? Mis uchun $k=0,328 \text{ mg/C}$.
A) 3,2. *B) 16,4.* *C) 32,8.* *D) 65,6.*
458. Elektrolitik vannada detal sirtini $36 \mu\text{m}$ qalinlikdagi xrom qatlami bilan qoplashga 2 soat ketgan bo'lsa, tokning o'rtacha zichligi qanday bo'lgan (mA/cm^2)? Xromning zichligi $7,2 \text{ g/cm}^3$, elektrokimyoviy ekvivalenti $0,18 \text{ mg/C}$.
A) 2. *B) 4.* *C) 20.* *D) 40.*
459. Detal sirti xrom bilan qoplanayotgan elektrolitik vannada tokning zichligi 10 mA/cm^2 ga teng bo'lsa, 4 soat davomida qanday qalinlikdagi xrom qatlami hosil bo'ladi (mm)? Xromning zichligi $7,2 \text{ g/cm}^3$, elektrokimyoviy ekvivalenti $0,18 \text{ mg/C}$.
A) 0,018. *B) 0,036.* *C) 0,18.* *D) 3,6.*
- 460*. Nitrat kislota (HNO_3) ning suvdagi eritmasidan 53 (7) C zaryad o'tganda qancha (mg) kislород ajralib chiqadi? Kislородning nisbiy atom massasi $A_r(O)=16$, Faradey doimiysi $F=96485 \text{ C/mol}$.
A) 1,4. *B) 2,5.* *C) 3,5.* *D) 4,4.*
- 461*. Sulfat kislota (H_2SO_4) ning suvdagi eritmasidan 1,9 (0,18) C zaryad o'tganda qancha (mg) kislород ajralib chiqadi? Kislородning nisbiy atom massasi $A_r(O)=16$, Faradey doimiysi $F=96485 \text{ C/mol}$.
A) 0,02. *B) 0,06.* *C) 0,16.* *D) 1,6.*
462. Yuzi 50 cm^2 bo'lgan sim ramka bir jinsli magnit maydonda aylantirilganda, magnit oqim $\Phi=25 \cdot 10^{-4} \cos 6t \text{ (Wb)}$ qonun bo'yicha o'zgaradi. Magnit induksiyasi qanday (T)?
A) 0,5. *B) 0,6.* *C) 1.* *D) 2.*
463. Induksiyasi 1 T bo'lgan magnit maydonda joylashgan 4 cm diametrli halqani kesib o'tayotgan magnit oqim $0,628 \text{ mWb}$ bo'lishi uchun induksiya vektori bilan halqa tekisligi orasidagi burchak qanday bo'lishi kerak?
A) 0. *B) 30°.* *C) 45°.* *D) 60°.*
464. O'ramlari soni 100 ta bo'lgan g'altakda induksiya EYKi 140 V bo'lsa, induksiya oqimining o'zgarish tezligi qanday (Wb/s)?
A) 0,7. *B) 0,8.* *C) 1,4.* *D) 7.*
465. Sim kontur orqali magnit oqim 2 s da 2 dan 3 Wb gacha tekis ortsasida, unda hosil bo'ladi induksiya EYKi qanday bo'ladi (V)?
A) 0,05. *B) 0,5.* *C) 5.* *D) 50.*
466. 200 ta o'ramli g'altakdagagi magnit oqim 0,4 s da 0,2 dan 1,1 Wb gacha ortsasida, unda yuzaga keladigan induksiya EYKi qanday bo'ladi (V)?
A) 150. *B) 300.* *C) 450.* *D) 600.*
- 467*. Yuzi $5 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$ bo'lgan sim halqa induksiya 10 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda 5 Hz chastota bilan aylanadi. Halqada hosil bo'ladi induksiya EYK ining amplituda qiyamini toping (mV).
A) 15,7. *B) 25.* *C) 31,4.* *D) 62,8.*
468. Yuzi 50 cm^2 , elektr qarshiligi $0,2 \Omega$ bo'lgan kontur orqali o'tuvchi magnit maydoni induksiya $B=0,02+0,04t \text{ (T)}$ qonun bo'yicha o'zgaradi. Induksiya vektori kontur tekisligiga tik yo'nalgan. Konturda hosil bo'ladi tokning kuchini aniqlang (mA).
A) 0,2. *B) 0,8.* *C) 1.* *D) 2.*
469. Yuzi 10 cm^2 , elektr qarshiligi 4Ω bo'lgan kontur orqali o'tuvchi magnit maydoni induksiya $B=0,02\cos 100t \text{ (T)}$ qonun bo'yicha o'zgaradi. Induksiya vektori kontur tekisligiga tik yo'nalgan. Konturda hosil bo'ladi tokning maksimal kuchini aniqlang (mA).
A) 0,1. *B) 0,5.* *C) 0,8.* *D) 1.*
470. Qarshiligi $0,02 \Omega$ bo'lgan kontur orqali o'tuvchi magnit oqim 1 s da $0,048 \text{ Wb}$ ga tekis o'zgarganda konturda hosil bo'ladi tok kuchini toping (A).
A) 0,1. *B) 0,6.* *C) 1,6.* *D) 2,4.*
471. Teng tomonli uchburchak shaklidagi metall ramka induksiyasi 500 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda joylashgan. Ramkaning normali induksiya vektori bilan 30° burchak hosil qildi. Maydon 30 ms davomida tekis o'chirilganda ramkada 10 mV EYK induksiyalandi. Ramka tomonining uzunligi qanday (cm)?
A) 3. *B) 4.* *C) 6.* *D) 8.*
472. 20 em uzunlikdagi o'tkazgich bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga va o'zigmatik ravishda 10 m/s tezlik bilan harakatlanganda $0,8 \text{ V}$ induksiya EYK hosil bo'lsa, magnit maydoni induksiyasi qanday (T)?
A) 0,2. *B) 0,3.* *C) 0,4.* *D) 0,5.*
473. V·s/A birlikka qanday nom qo'yilgan?
A) joult. *B) tesla.* *C) genri.* *D) weber.*
474. O'altakdan o'tuvchi tok kuchi 4 s da 12 dan 4 A gacha tekis kamaydi. Agar g'altakning induktivligi 4 H bo'lsa, unda qanday induksiya EYK hosil bo'lgan (V)?
A) 0,8. *B) 4.* *C) 8.* *D) 10.*
475. Induktivligi 60 mH bo'lgan g'altakdan o'tayotgan tok kuchining o'zgarish tezligi qanday bo'lganda, unda $0,6 \text{ V}$ o'zinduksiya EYK hosil bo'ladi?
A) 0,01. *B) 0,1.* *C) 1.* *D) 10.*
476. G'altakdagagi tok kuchi 200 ms da 0 dan 2 A gacha tekis o'zgarganda unda 30 mV o'zinduksiya EYK hosil bo'lsa, g'altakning induktivligi qanday (mH)?
A) 1. *B) 2.* *C) 3.* *D) 4.*

477. Induktivligi 3 H bo'lgan g'altakdag'i tok kuchi 3 s da 12 dan 2 A gacha tekis kamaydi. Unda hosil bo'lgan induksiya EYK qanday (V)?
 A) 2 . B) 4 . C) 8 . D) 10 .
478. G'altakdan 4 A tok o'tayotganda hosil bo'lgan magnit maydon energiyasi 4 J bo'lsa, g'altakning induktivligi qanday (H)?
 A) $0,5$. B) $1,0$. C) $1,5$. D) $2,0$.
479. O'altakdan 3 A tok o'tganda 2 Wb magnit oqim hosil bo'lsa, g'altak magnit maydonining energiyasi qanday bo'ladi (J)?
 A) $1,5$. B) 3 . C) $4,5$. D) 6 .
480. Induktivligi 25 H bo'lgan g'altakdag'i tok kuchi qanday bo'lganda (mA), magnit oqim 400 mWb bo'ladi? A) 5 . B) 10 . C) 16 . D) 20 .
481. Solenoiddagi tok kuchi 10 A bo'lganda magnit maydon energiyasi 5 J bo'lsa, solenoiddan o'tayotgan magnit oqim qanday (Wb) bo'ladi?
 A) $0,25$. B) $0,5$. C) 1 . D) $2,5$.
482. Induktivlik g'altagidan 2 A tok o'tganda, unda 40 Wb magnit oqim yuzaga keladi. Agar g'altakdag'i magnit oqim doimiy saqlanib, g'altakning o'ramlari soni 5 marta orttirilsa, uning magnit maydoni energiyasi qanday (J) bo'ladi?
 A) $0,8$. B) $1,6$. C) 8 . D) 16 .
483. Quyidagi birliklarning qaysilari birliklarning Xalqaro sistemasi (BXS) ning asosiy birliklariga mansub: 1) genri; 2) kilogrammi; 3) amper; 4) sekund; 5) kelvin; 6) m/s; 7) nyuton; 8) joul; 9) metr?
 A) $2, 6, 7, 9$. B) $1, 2, 3$. C) $2, 3, 4, 5, 9$. D) $3, 4, 5$.
484. Tebranishlar konturi induktivligi 4 mH bo'lgan g'altak, sig'imi 9 nF bo'lgan kondensator va kalitdan iborat. Kalit uzuq va kondensator zaryadlangan. Kalit ulangandan qancha vaqt (μs) o'tgach g'altakning magnit maydon energiyasi kondensatorning elektr maydon energiyasidan 3 marta kichik bo'ladi?
 A) $0,31$. B) $0,63$. C) $3,14$. D) $6,28$.
485. Tebranishlar konturi induktivligi $1,8 \text{ mH}$ bo'lgan g'altak, sig'imi $18 \text{ }\mu\text{F}$ bo'lgan kondensator va kalitdan iborat. Kalit uzuq va kondensator zaryadlangan. Kalit ulangandan qancha vaqt (μs) o'tgach g'altakning magnit maydon energiyasi kondensatorning elektr maydon energiyasidan 3 marta katta bo'ladi?
 A) $125,6$. B) 157 . C) $188,5$. D) 314 .
486. To'lqin uzunligi 228 m bo'lgan radioto'lqlarni qabul qilayotgan tebranishlar konturidagi kondensator sig'imi 4 marta kamaytirilsa, kontur qanday to'lqin uzunligiga (m) moslashadi?
 A) 57 . B) 114 . C) 338 . D) 456 .
487. To'lqin uzunligi 208 m bo'lgan radioto'lqlarni qabul qilayotgan tebranishlar konturidagi kondensator sig'imi 4 marta orttirilsa, kontur qanday to'lqin uzunligiga (m) moslashadi?
 A) 52 . B) 104 . C) 416 . D) 832 .
488. Tebranishlar konturidagi tok kuchining o'zgarish qonuni $i=25\cos 10^7 t$ (A) ko'rinishiga ega. Kondensator zaryadining maksimal qiymati qanday (μC)?
 A) $0,05$. B) $0,25$. C) $2,5$. D) 5 .
489. Tebranishlar konturidagi tok kuchi $i=0,01\cos 1000t$ (A) qonun bo'yicha o'zgaradi. Kontur kondensatorining sig'imi $C=20 \text{ }\mu\text{F}$. O'altakning induktivligi qanday (H)?
 A) $0,05$. B) $0,1$. C) $0,2$. D) $0,4$.
490. Tebranish konturi kondensatoridagi zaryad $q=3\cdot 10^{-6}\sin(10^6 t + \pi/3)$ qonunga muvofiq o'zgaradi. Konturdagi tok kuchining amplituda qiyimatini toping (A).
 A) $0,3$. B) 3 . C) 10^{-6} . D) $3\cdot 10^{-2}$.
491. Kontur induktivligi 10 mH bo'lgan g'altak va 400 pF sig'imi kondensatordan iborat. Agar kondensatordagi kuchlanish amplitudasi 500 V bo'lsa, tok kuchi amplitudasi qanday bo'ladi (A)?
 A) $0,1$. B) 4 . C) 10 . D) 20 .
492. Tebranishlar konturi kondensatori zaryadining maksimal qiymati $50 \text{ }\mu\text{C}$, g'altagidagi tokning amplituda qiymati 5 mA bo'lsa, tebranishlar davri qanday bo'ladi (ms)?
 A) $0,628$. B) $3,14$. C) $6,28$. D) $62,8$.
493. Tebranishlar konturidagi kondensatorning maksimal zaryadi $2,5\cdot 10^{-6} \text{ C}$ ga, konturdagi maksimal tok kuchi $3,14 \text{ mA}$ ga teng. Konturning elektromagnit tebranishlari chastotasini toping (kHz). A) $0,2$. B) 2 . C) $2,5$. D) $3,14$.
494. Tebranishlar konturi 10 nF sig'imi kondensator va induktivligi $0,1 \text{ mH}$ bo'lgan g'altakdan iborat. Shu kontur qanday to'lqin uzunligiga (m) moslangan?
 A) 1884 . B) 3140 . C) 3770 . D) 6280 .
- 495*. Radiopriyomnik tebranish konturidagi kondensatorning sig'imi $0,1 \text{ pF}$ ga teng. G'altagini induktivligi shundayki, tok kuchining o'zgarish tezligi 2 A/s bo'lgan paytda unda $0,2 \text{ V}$ o'zinduksiya EYK hosil bo'ladi. Radiopriyomnik qanday to'lqin uzunlikka sozlangan (m)?
 A) $11,1$. B) $47,8$. C) $188,5$. D) $209,3$.
496. Tebranishlar konturi kondensatorining qoplamalari orasidagi masofa 4 marta kichiklashtirildi. Bunda konturdagi tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi?
 A) 2 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
 C) 4 marta ortadi. D) 4 marta kamayadi.
497. Induktivligi 5 mH bo'lgan g'altak va sig'imi 800 pF bo'lgan kondensatordan iborat konturidagi tebranishlar chastotasini aniqlang (kHz).
 A) 10 . B) 20 . C) 40 . D) 80 .
498. Tebranishlar konturidagi kondensatorning sig'imi $0,4 \text{ }\mu\text{F}$, tebranishlarning siklik chastotasi 5000 rad/s bo'lsa, g'altakning induktivligi qanday (H)?
 A) $0,05$. B) $0,1$. C) $0,5$. D) 1 .
499. Zanjirdagi tok kuchi $i=25\sin 100\pi t$ (A) qonuniyat bilan o'zgaradi. Tokning o'zgarish chastotasini toping (Hz).
 A) 5 . B) 50 . C) 100 . D) 100π .
500. Zanjirdagi tok kuchi $i=0,3\cos(100\pi t + \pi/2)$ qonuniyat bilan o'zgaradi. Shu tokning o'zgarish davrini toping (s).
 A) $0,01$. B) $0,02$. C) $0,03$. D) $0,3$.
501. 40Ω aktiv qarshilik, 20Ω induktiv qarshilik va 10Ω sig'im qarshilik o'zgaruvchan tok zanjiriga ketma-ket ulangan. Agar zanjirdan $2,5 \text{ A}$ tok o'tayotgan bo'lsa 2 s da undan ajralib chiq-qan issiqlik miqdori qanday bo'ladi?
 A) 500 . B) 750 . C) 780 . D) 1500 .

502. O'zgaruvchan tokning siklik chastotasi qanday bo'lqanda (rad/s) 100 nF sig'imli kondensatorning sig'im qarshiligi 2 k Ω bo'ladi?
 A) 200. B) 500. C) 1600. D) 5000.
503. Chastotasi 25 Hz bo'lgan o'zgaruvchan tok zanjiriga 80 μ F sig'imli kondensator ulandi. Uning sig'im qarshiligini toping (Ω).
 A) 50. B) 80. C) 100. D) 160.
504. Kondensator va lampa o'zgaruvchan tok tarmog'iga ketma-ket ulangan. Kondensatorga yana shunday kondensator ketma-ket ulansa, lamparning ravshanligi qanday o'zgaradi?
 A) o'zgarmaydi. B) ortadi. C) kamayadi. D) o'chadi, chunki kondensator tok o'tkazmaydi.
505. O'zgaruvchan tok zanjiriga kondensator ulangan. Agar tokning chastotasi 5 marta ottirilsa, kondensatordagi tok kuchi va kuchlanish fazalari farqi qanday o'zgaradi?
 A) o'zgarmaydi. B) 5 marta kamayadi. C) 5 marta ortadi. D) 25 marta kamayadi.
506. O'zgaruvchan tok zanjiriga kondensator va rezistor ketma-ket ulangan. Agar tokning chastotasi kamaytirilsa, zanjirdagi tok kuchi va kuchlanish fazalari farqi qanday o'zgaradi?
 A) aniqlab bo'lmaydi. B) ortadi. C) kamayadi. D) o'zgarmaydi.
507. 400 Hz chastotali o'zgaruvchan tok tarmog'iga 50 mH induktivli g'altak ulandi. Uning induktiv qarshiligini toping (Ω).
 A) 16. B) 32. C) 63. D) 126.
508. O'altak uchlariga ulangan voltmetr 31,4 V kuchlanishni, ampermetr 1 A tokni ko'rsatsa, g'altakning induktivligi qanday (H)? Tok chastotasi 50 Hz, g'altakning aktiv qarshiligini hisobga olmang.
 A) 0,01. B) 0,1. C) 0,4. D) 10.
509. Zanjirga EYKi 1,4 V bo'lgan manba, qarshiligi 1 Ω bo'lgan reostat va induktivligi 1 H bo'lgan g'altak ketma-ket ulangan. Zanjirdan o'zgarmas tok o'tayotan edi. Biror vaqt momentidan boshlab qarshilik shunday o'zgartirila boshladiki, bunda tok 0,2 A/s doimiy tezlik bilan karmaya bordi. Tok o'zgara boshlagandan keyin 2 s vaqt o'tgach, zanjirning qarshiligi qanday (Ω) bo'ladi? A) 1. B) 1,2. C) 1,6. D) 1,8.
510. Qarshiligi 30 Ω bo'lgan rezistor, kondensator va ideal induktivlik g'altagi ketma-ket ulangan zanjirdagi o'zgaruvchan kuchlanish chastotasi shundayki, kondensatorning sig'im qarshiliği 60 Ω ga, g'altakning induktiv qarshiligi 20 Ω ga teng. Bu zanjirning umumiy qarshiligi qanday? A) 10. B) 50. C) 70. D) 110.
511. O'zgaruvchan tok zanjiriga qarshiligi 26 Ω bo'lgan rezistor, sig'imi 40 nF bo'lgan kondensator va induktivligi 0,4 mH bo'lgan g'altak ketma-ket ulangan. Tokning siklik chastotasi qanday (rad/s) bo'lqanda zanjirdagi tok bilan kuchlanish fazalari farqi nolga teng bo'ladi?
 A) $2,2 \cdot 10^5$. B) $2,5 \cdot 10^5$. C) $2,2 \cdot 10^6$. D) $1,5 \cdot 10^6$.
512. Transformatoring birlamchi chulg'amidagi o'ramlar soni 400 ta, ikkilamchi chulg'amidagi si 200 ta. Birlamchi chulg'amiga 220 V kuchlanish berilsa, ikkilamchi chulg'amdag'i kuchlanish qanday bo'ladi (V)?
 A) 100. B) 110. C) 200. D) 220.
513. Transformatoring birlamehi chulg'amida kuchlanish 110 V, tok kuchi 2 A, ikkilamchi cho'lg'amida esa 38 V va 5 A bo'lsa, uning FIK qanday (%)? A) 76. B) 80. C) 86. D) 95.
- 514*. Cho'g'lanma elektr lampa ipining qaerida temperatura yuqori: sirtidami yoki o'rtasidami?
 A) hamma joyida bir xil. B) o'rtasida. C) sirtida. D) ip gorizontal joylashganda o'rtasida.
515. 12 V kuchlanishli tarmoqqa ulangan elektr motor salt ishlaganda undan 6 A, yuklanish ostida ishlaganda 24 A tok o'tsa, motorning mexanik quvvati qanday bo'ladi (W)?
 A) 90. B) 192. C) 216. D) 360.
516. Transformatoring ikkilamchi chulg'amidan olinayotgan tok oshishi bilan birlamchi chulg'amga ketma-ket ulangan ampermetr ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
 A) kamayadi. B) oshadi. C) o'zgarmaydi. D) avval oshadi, so'ngra kamayadi.
517. Vakuumda 400 nm to'lqin uzunlikka ega bo'lgan yorug'likning chastotasini toping (Hz).
 A) $5 \cdot 10^{15}$. B) $4 \cdot 10^{14}$. C) $7,5 \cdot 10^{14}$. D) $4 \cdot 10^{15}$.
518. Vakuumda 2 km kesmaga monoxromatik nurlanishning $2 \cdot 10^5$ ta to'lqin uzunligi joylashishi uchun bu nurlanishning chastotasi qanday bo'lishi kerak (Hz).
 A) $3 \cdot 10^9$. B) $6 \cdot 10^9$. C) $3 \cdot 10^{10}$. D) $12 \cdot 10^{10}$.
519. Yassi ko'zgu 15° ga burildi. Bu ko'zgudan qaytgan nur qanday burchakka buriladi?
 A) 5° . B) 10° . C) 20° . D) 30° .
520. Yassi ko'zgudan qaytgan nur bilan ko'zgu sirti orasidagi burchak 62° ga teng bo'lsa, tushayotgan va qaytgan nurlar orasidagi burchak qanday bo'ladi?
 A) 31° . B) 56° . C) 62° . D) 124° .
521. Yassi ko'zguga nur 24° burchak ostida tushmoqda. Tushgan nurning holatini o'zgartirmay ko'zgu burilganda, nurning tushish burchagi 38° ga teng bo'lib qolsa, qaytgan nur qanday burchakka buriladi?
 A) 14. B) 28. C) 48. D) 72.
522. Odam vertikal joylashgan yassi ko'zgu tekisligiga 3 m yaqinlashsa, u bilan uning fasviri orasidagi masofa qanday o'zgaradi?
 A) o'zgarmaydi. B) 2 m kamayadi. C) 3 m kamayadi. D) 6 m kamayadi.
523. Yorug'likning shaffof muhitdagi tezligi 0,66 c ga teng. Shu muhitning absolut sindirish ko'rsatkichini aniqlang. C – yorug'likning bo'shliq-dagi tezligi. A) 1,5. B) 1,66. C) 2. D) 2,3.
524. Yorug'lik to'lqinining havodagi uzunligi 0,6 μ m. Uning suvdagi uzunligi qanday (μ m)? Suvning sindirish ko'rsatkichi $4/3$ ga teng.
 A) 0,45. B) 0,50. C) 0,60. D) 0,80.
525. Yorug'likning shishadagi tezligi 200000 km/s. Shishaning absolut sindirish ko'rsatkichi qanday? A) 1,4. B) 1,5. C) 1,6. D) 2.
526. Yorug'likning olmosdagi tezligi $1,25 \cdot 10^8$ m/s. Havodagi uzunligi 360 nm bo'lgan yorug'lik to'lqinining olmosdagi uzunligi qanday?
 A) 120. B) 150. C) 250. D) 450.

527. Monoxromatik nur bo'shliqdan sindirish ko'rsatkichi $5/3$ ga teng bo'lgan shaffof muhitga o'tganda, uning to'lqin uzunligi qanday o'zgaradi? A) o'zgarmaydi. B) 20% ga kamayadi. C) 40% ga orladi. D) 40% ga kamayadi.
528. Sindirish ko'rsatkichi $2,4$ bo'lgan muhitdan sindirish ko'rsatkichi $1,33$ bo'lgan muhitga o'tganda, yorug'lik to'lqininining chastotasi qanday o'zgaradi? A) o'zgarmaydi. B) $1,5$ marta kamayadi. C) 3 marta kamayadi. D) $1,5$ marta ortadi.
529. Absolut sindirish ko'rsatkichi $1,5$ ga teng bo'lgan shaffof muhitda tarqalayotgan, to'lqin uzunligi 500 nm bo'lgan yorug'likning chastotasini toping (Hz). A) $3 \cdot 10^{14}$. B) $4 \cdot 10^{14}$. C) $1,5 \cdot 10^{15}$. D) $5 \cdot 10^{15}$.
530. Muhitda tarqalayotgan yorug'likning chastotasi $2 \cdot 10^{15}$ Hz, to'lqin uzunligi 100 nm bo'lsa, muhitning sindirish ko'rsatkichi qanday? A) $1,33$. B) $1,5$. C) $1,6$. D) 2 .
531. Yorug'lik nuri havodan turmalinning yassi sirtiga tushganda, qaytgan va singan nurlar orasidagi burchak tushish burchagidan $1,5$ marta katta bo'ldi. Tushish burchagi 60° bo'lsa, sinish burchagi qanday bo'ladi? A) 30° . B) 45° . C) 60° . D) 90° .
533. 1-muhitdagi to'lqin uzunligi 500 nm bo'lgan yorug'lik 2-muhitga 30° burchak ostida tushib, 45° burchak ostida sinadi. Uning 2-muhitdagi to'lqin uzunligi qanday (nm)? A) 286 . B) 320 . C) 400 . D) 707 .
533. Agar nur muzga 45° burchak ostida tushib, 33° burchak ostida sinsa, u muzda qanday tezlik bilan tarqaladi (m/s)? $\sin 45^\circ = 0,7$, $\sin 33^\circ = 0,54$. A) $1,3 \cdot 10^3$. B) $2 \cdot 10^3$. C) $2,3 \cdot 10^3$. D) $3 \cdot 10^3$.
- 534*. Havo-muhit chegarasiga 60° burchak ostida tushayotgan nuring to'lqin uzunligi 620 nm. Agar qaytgan nur bilan singan nur o'zaro perpendikular bo'lsa, singan nuring to'lqin uzunligi qanday (nm)? A) $620/\sqrt{3}$. B) $620/\sqrt{2}$. C) 620 . D) $620\sqrt{3}$.
535. Kvarsdan ($n=1,7$) yasalgan F_1 fokus masofali yig'uvchi linza suvga ($n=1,3$), so'ngra anilinga ($n=1,59$) tushirildi va mos ravishda F_2 va F_3 fokus masofalar o'lchandi. Fokus masofalar orasidagi to'g'ri munosabatni ko'rsating. A) $F_1=F_2=F_3$. B) $F_1 < F_2 < F_3$. C) $F_2 < F_1 < F_3$. D) $F_1 > F_2 > F_3$.
536. Ikki yoqlama botiq shisha linza yordamida haqiqiy tasvir olish mumkinmi?
- A) mumkin emas. B) mumkin, agar linza sindirish ko'rsatkichi shishanikidan kichik bo'lgan muhitda turgan bo'lsa.
 - C) mumkin, agar linza sindirish ko'rsatkichi shishanikidan katta bo'lgan muhitda turgan bo'lsa.
 - D) mumkin, agar buyum linzadan $2F$ masofada bo'lsa (F – fokus masofa).
537. To'la qaytishning chegaraviy burchagi 45° bo'lgan ikki muhit chegarasiga nur 30° burchak ostida tushsa (optik zichligi katta muhitdan), sinish burchagi qanday bo'ladi? A) 0 . B) 30° . C) 45° . D) 60° .
538. Agar olmosning sindirish ko'rsatkichi 2 bo'lsa, yorug'likning olmosdagi to'la qaytish chegaraviy burchaginining sinus qanday bo'ladi? A) $0,4$. B) $0,5$. C) $0,5\sqrt{2}$. D) $0,5\sqrt{3}$.
539. Yorug'lik nuri shaffof muhitdan havoga o'tayotganida to'la ichki qaytishning chegaraviy burchagi α_0 ga teng bo'ldi. Agar $\sin \alpha_0 = 0,7$ bo'lsa, bu muhitda yorug'lik nuri qanday tezlikda (m/s) tarqaladi? A) $2,1 \cdot 10^8$. B) $3 \cdot 10^8$. C) $1,5 \cdot 10^8$. D) $1,2 \cdot 10^8$.
540. To'g'ri tasdiqni ko'rsating.
- A) bir xil chustotali va doimiy fazalar farqi hosil qiluvchi yorug'lik to'lqinlari o'zaro kogerent to'lqinlar deb ataladi.
 - B) bir xil chastotali yorug'lik manbalari o'zaro kogerent manbalar deb ataladi.
 - C) bir xil uzunlikka ega bo'lgan va bir tekislik bo'ylab qutblangan to'lqinlar kogerent to'lqinlar deb ataladi.
 - D) bir xil amplitudali va to'lqin uzunlikli, o'zaro tik tekisliklar bo'ylab qutblangan to'lqinlar o'zaro kogerent to'lqinlar deb ataladi.
541. Har millimetrida 500 ta shtrix bo'lgan difraksiya panjarasining har millimetrida 200 ta shtrix bo'lsa va 5 -tartibli maksimum 30° burchak ostida kuzatilsa, yorug'likning to'lqin uzunligi qanday (μm)? A) $0,4$. B) $0,5$. C) $0,6$. D) $0,7$.
542. Difraksiya panjarasiga to'lqin uzunligi 600 nm bo'lgan monoxromatik yorug'lik tik tushmoqda. 2-tartibli ikki chiziq orasidagi burchakni toping. A) 30° . B) 45° . C) 60° . D) 90° .
543. Difraksiya panjarasiga to'lqin uzunligi 600 nm bo'lgan monoxromatik yorug'lik tik tushmoqda. Agar o'ninchgi tartibli maksimum 30° burchak ostida kuzatilayotgan bo'lsa, panjaraning davri qanday (μm)? A) 6 . B) 12 . C) 20 . D) 60 .
544. Difraksiya panjarasiga tik tushayotgan oq yorug'lik nuri difraksiyalanganida, 2-tartibli spektrdagagi 654 nm to'lqin uzunlikdagagi chiziq bilan 3-tartibli spektrdagagi qanday (nm) chiziq ustma-ust tushadi? A) 436 . B) 442 . C) 446 . D) 526 .
545. Difraksiya panjarasiga tik tushayotgan oq yorug'lik nuri difraksiyalanganida, 3-tartibli spektrdagagi 560 nm to'lqin uzunlikdagagi chiziq bilan 4-tartibli spektrdagagi qanday (nm) chiziq ustma-ust tushadi? A) 420 . B) 480 . C) 520 . D) 560 .
- 546*. Difraksiya panjarasiga tik tushayotgan oq yorug'lik nuri difraksiyalanganida, 4-tartibli spektrdagagi 490 nm to'lqin uzunlikdagagi chiziq bilan 3-tartibli spektrdagagi qanday (nm) chiziq ustma-ust tushadi? A) 276 . B) 368 . C) 653 . D) 870 .
547. Oq yorug'lik nuri difraksiya panjarasiga tik tushmoqda. 2-tartibli spektrdagagi 600 nm to'lqin uzunlikdagagi chiziq markaziy chiziqqa nisbatan 30° burchak ostida kuzatilsa, 4-tartibli spektrdagagi 564 nm to'lqin uzunlikdagagi chiziq qanday burchak ostida kuzatiladi? A) 20° . B) 30° . C) 45° . D) 60° .

548. 600 nm to'lqin uzunlikdagi monoxromatik yorug'lik davri $3,6 \mu\text{m}$ bo'lgan difraksiya panjara-siga tik tushmoqda. 30° burchak ostida kuzatiladigan difraksion maksimumning tartibini aniqlang. A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
549. Davri $5 \mu\text{m}$ bo'lgan difraksion panjaraga to'lqin uzunligi 600 nm bo'lgan yorug'likning parallel dastasi tik tushmoqda. Panjara orqasida joylashgan cheksiz katta ekranda nechta bosh maksimum kuzatiladi? A) 8. B) 9. C) 16. D) 17.
550. Zarg'aldoq ($\lambda=0,6 \mu\text{m}$) nur bilan yoritilgan va davri $10 \mu\text{m}$ bo'lgan difraksion panjara nechta difraksion maksimum hosil qila oladi? A) 16. B) 19. C) 25. D) 33.
551. Tezligi $0,866c$ bo'lgan elektronning massasi uning tinchlikdagi massasidan necha marta katta bo'ladi? C – yorug'likning bo'shliqdagi tezligi. A) 2,0. B) 2,5. C) 4,0. D) 5,0.
552. Zarra qanday tezlikda harakatlanganda, uning kinetik energiyasi tinchlikdagi energiyasiga teng bo'ladi? c – yorug'likning bo'shliqdagi tezligi. A) $0,50c$. B) $0,87c$. C) $0,91c$. D) $0,99c$.
553. Qanday tezlikdagi elementar zarraning kinetik energiyasi uning tinchlikdagi energiyasidan 4 marta katta bo'ladi? c – yorug'likning bo'shliqdagi tezligi.
- A) $\frac{\sqrt{2}}{5}c$. B) $\frac{\sqrt{2}}{4}c$. C) $\frac{2\sqrt{6}}{5}c$. D) $\frac{2\sqrt{6}}{4}c$.
554. Jismga $45 \cdot 10^8 \text{ J}$ energiya berilganda uning massasi qanchaga ortadi (mg)? A) 0,05. B) 0,15. C) 1,5. D) 4,5.
555. Geliy gazining nurlanish spektri qanday? A) yo'l-yo'l. B) uzlusiz. C) chiziqli. D) aniqlab bo'lmaydi.
556. Natriy bug'ining nurlanish spektri qanday? A) chiziqli. B) yo'l-yo'l. C) uzlusiz. D) aniqlab bo'lmaydi.
557. Gaz atomlarining nurlanish spektri qanday? A) aniqlab bo'lmaydi. B) uzlusiz. C) chiziqli. D) yo'l-yo'l.
558. Ushbu nurlarning qaysi biri eng kichik to'lqin uzunlikka ega? A) ultrabinafsha nurlar. B) radioto'lqintar. C) ko'rinvuch yorug'lik. D) rentgen nurlari. E) infraqizil nurlar.
559. Termoelektron emissiya – bu... A) elektronlar dastasi ta'sirida metallarni purkash. B) yorug'lik ta'sirida elektronlarning chiqishi. C) atomning elektron va ionga ajralishi. D) qizdirilgan metall sirtidan elektronlarning chiqishi.
560. Volframli, molibdenli va oksidli uch katod bir xil temperaturagacha qizdirilgan. Qaysi katod eng ko'p elektron chiqaradi? A) uchalasi taxminan bir xil chiqaradi. B) volframli. C) molibdenli. D) oksidli.
561. Agar seziyda fotoeffektni yuzaga keltiruvechi yorug'likning eng katta to'lqin uzunligi 620 nm bo'lsa, elektronning seziydan chiqish ishi qanday (eV)? $h=4,1 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$. A) 1,0. B) 1,5. C) 2,0. D) 2,5.
562. Qandaydir metall uchun fotoeffektning qizil chegarasi 331 nm bo'lsa, fotoeffektni yuzaga keltiruvechi fotonning minimal energiyasi qanday bo'ladi (eV)? $h=4,14 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$. A) 2,45. B) 2,6. C) 3,75. D) 4,5.
563. Litiydan uzilib chiqqan fotoelektronlarning maksimal kinetik energiyasi $1,7 \text{ eV}$ bo'lishi uchun u qanday chastotali (Hz) yorug'lik bilan yoritilishi kerak? $A=2,4 \text{ eV}$, $h=4,14 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$. A) $1 \cdot 10^{15}$. B) $4,1 \cdot 10^{14}$. C) $4,1 \cdot 10^{15}$. D) $5,9 \cdot 10^{14}$.
564. Chiqish ishi $2,4 \text{ eV}$ bo'lgan metall plastina energiyasi $7,2 \text{ eV}$ bo'lgan fotonlar oqimi bilan uzoq vaqt yoritilsa, u necha volt potensialgacha zaryadlanishi mumkin? A) 1,2. B) 2,4. C) 3,6. D) 4,8.
- 565*. Chiqish ishi $3,3 \cdot 10^{-19} \text{ J}$ bo'lganda fotoeffekt kuzatilishi uchun yorug'likning to'lqin uzunligi ko'pi bilan qanday bo'lishi mumkin (nm)? $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) 300. B) 500. C) 600. D) 3000.
566. Chastotasi $6 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$ bo'lgan fotonning tinchlikdagi massasini toping (kg). $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) 0. B) $4,4 \cdot 10^{-34}$. C) $3,3 \cdot 10^{-36}$. D) $4,4 \cdot 10^{-36}$.
567. Energiyasi 3 eV bo'lgan fotonning chastotasi aniqlang (Hz). A) $4,1 \cdot 10^{14}$. B) $5 \cdot 10^{14}$. C) $7,3 \cdot 10^{14}$. D) $6 \cdot 10^{14}$.
568. Chastotasi $9 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$ bo'lgan fotonning massasini toping (kg). $h=6,63 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) $1,5 \cdot 10^{-36}$. B) $3,31 \cdot 10^{-36}$. C) $6,63 \cdot 10^{-36}$. D) $33,1 \cdot 10^{-36}$.
569. To'lqin uzunligi 10^{-7} m bo'igan fotonning energiyasi qanday bo'ladi (eV)? $h=4,14 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$. A) 2. B) 4. C) 8. D) 12,4.
570. Energiyasi $3 \cdot 10^{-19} \text{ J}$ bo'lgan fotonning impulsi qanday bo'ladi ($\text{kg}\cdot\text{m}/\text{s}$)? A) $1 \cdot 10^{-27}$. B) $2 \cdot 10^{-27}$. C) $1,8 \cdot 10^{-10}$. D) $5 \cdot 10^{-10}$.
571. Yorug'likning to'lqin uzunligi qanday bo'lganida uning fotonining energiyasi $3,3 \cdot 10^{-19} \text{ J}$ bo'ladi. $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) 300 nm. B) 600 nm. C) $0,5 \mu\text{m}$. D) 3 μm .
572. Nurlanishning to'lqin uzunligi $6 \cdot 10^{-5} \text{ cm}$ ga teng. $6 \cdot 10^{14}$ ta fotonning energiyasini toping (J). $h=6,63 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) 10^{-4} . B) $2 \cdot 10^{-4}$. C) $6,62 \cdot 10^{-5}$. D) 10^{-5} .
573. Rentgen spektrining qisqa to'lqin chegarasi 1 nm ga teng bo'lsa, rentgen trubkasi qanday kuchlanish (kV) ostida ishlayotgan bo'ladi? $h=4,1 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$. A) 0,9. B) 1,2. C) 2,4. D) 9.
574. 3,3 g massali jism butunlay elektromagnit maydonga aylanib ketsa, shu jarayonda chastotasi $9 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$ bo'lgan fotonlardan nechta nurlanishi mumkin? $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) $3 \cdot 10^{31}$. B) $6,6 \cdot 10^{31}$. C) $3,3 \cdot 10^{32}$. D) $5 \cdot 10^{32}$.
575. 6,6 g massali jism butunlay elektromagnit maydonga aylanib ketsa, shu jarayonda chastotasi $1,8 \cdot 10^{15} \text{ Hz}$ bo'lgan fotonlardan nechta nurlanishi mumkin? $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$. A) $3 \cdot 10^{31}$. B) $6,6 \cdot 10^{31}$. C) $3,3 \cdot 10^{32}$. D) $5 \cdot 10^{32}$.
576. Rentgen nayining katodi va anodi orasidagi kuchlanish 12,4 kV bo'lgan hol uchun rentgen nurlarining to'lqin uzunligini toping (m).

$$h=4,14 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$$

A) 10^{-5} . B) 10^{-10} . C) 10^{-17} . D) 10^{-22} .

577. Zaryadi +1 elementar zaryadga teng bo'lgan va yadrosida 9 ta proton va 10 ta neytron bo'lgan ionda nechta elektron bor?

A) 8. B) 9. C) 10. D) 19.

578. Qandaydir atomni ionlashtirish uchun 6,15 eV energiya kerak. Shunday energiyali ionlashtiruvchi nurlanishning to'lqin uzunligini toping (nm). $h=4,1 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$.

A) 50. B) 200. C) 300. D) 400.

579. Atom bir energetik sathdan ikkinchisiga o'tdi va bunda energiyasi $1,32 \cdot 10^{-19} \text{ J}$ kamaydi. Atom nurlagan yorug'lik to'lqinin chasotasi qanday (Hz)? $h=6,6 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$.

A) $1 \cdot 10^{14}$. B) $2 \cdot 10^{14}$. C) $5 \cdot 10^{14}$. D) $1 \cdot 10^{15}$.

580. Vodorod atomining energiyasi -3,4 eV bo'lgan holatdan -11,6 eV energiyali holatga o'tishiда chiqaradigan yorug'lik to'lqini uzunligini aniqlang (μm). $h=4,1 \cdot 10^{-15} \text{ eV}\cdot\text{s}$.

A) 0,15. B) 0,30. C) 0,40. D) 0,50.

581. Yarim yemirilish davridan 2 marta ko'p vaqt ichida radioaktiv modda yadrolarining qanday qismi yemiriladi?

A) 1/2. B) 3/4. C) hammasi. D) 7/8.

582. Yod-131 izotopi yadrolarining yarim yemirilish davri 8 sutka. Agar radioaktiv yadrolarning boshlang'ich soni 10^8 ta bo'lsa, 40 sutkadan so'ng nechta yemirilmay qoladi?

A) $1,6 \cdot 10^6$. B) $3,12 \cdot 10^6$. C) $6,25 \cdot 10^6$. D) $12,5 \cdot 10^6$.

583. Radioaktiv moddaning aktivligi 16 sutkada 75% ga kamaygan bo'lsa, uning yarim yemirilish davri necha sutkaga teng?

A) 4. B) 8. C) 12. D) 16.

584. Radioaktiv moddaning aktivligi 48 sutkada 75% ga kamaygan bo'lsa, uning yarim yemirilish davri necha sutkaga teng?

A) 12. B) 18. C) 24. D) 36.

585. Solishtirma bog'lanish energiyasi 7,65 MeV/nuklon ga teng bo'lgan yadroning tarkibida 8 ta proton va 9 ta neytron bor. Shu yadroni erkin proton va neytronlarga ajratib yuborish uchun kamida qancha energiya (MeV) zarur bo'ladi?

A) 7,65. B) 61,2. C) 68,85. D) 130,05.

IZOHLAR

1. Nomeri to'rtburchak (□) ichiga olingan savollar qaytarilgan savollardir.
2. Nomeri yulduzeha (*) bilan belgilangan masalalar xatoli masalalar edi. Ularning xatolari to'g'rilangan. Bu xatolarning ba'zilari masala matnida qavslarda keltirilgan.
3. Testlarning matnlari asl nusxadagi bilan aynan bir xil emas, chunki ular tahrir qilingan.